

**SULAYMONOVA M.X**

---

**YER TUZISH ISHLARINI TASHKIL  
QILISH VA REJALASHTIRISH**

**TOSHKENT-2013**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

---

**M.X.SULAYMANOVA**

# **YER TUZISH ISHLARINI TASHKIL QILISH VA REJALASHTIRISH**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lif  
vazirligi oliy o'quv yurtlari ilmiy-uslubiy birlashmasi faoliyatini  
Muvofiqlashtirish kengashi tamonidan o'kuv qo'llanma sifatida tавсиya etilgan.*

**TOSHKENT- 2013**

OO‘MTVning 14.10.2008 y. № 306 sonli buyrug‘uga asosan  
chop etishga tavsiya etilgan.

**UDK-322.3**

**Muallif: M. X. Sulaymanova**

**/YER TUZISH ISHLARINI TASHKIL QILISH VA REJALASHTIRISH/.**

O‘quv qo‘llanma. -T.: TIMI, 2013. 111 b.

O‘quv qo‘llanma «Yer tuzish ishlarini tashkil qilish va rejalashtirish» fanining dasturiga mos tarzda O‘zbekiston Respublikasi Yer to‘g‘risidagi qonunchiligidida yuz bYergan oxirgi o‘zgarishlarni va o‘tkazilgan Yer islohatini hisobga olgan holda taYorlandi. Unda Yer tuzish xizmati hamda loyiha tashkilotlari ishlarini va faoliyatini o‘rganish, ish va mehnatni to‘g‘ri tashkil qilish asoslari ,Yer tuzish ishlarini bajarishda ilmiy asoslangan me’yorlardan foydalanishni, boshqarish usullarini Yer tuzishda mehnatga haq to‘lash tizimini tadbiq qilish yo‘llarini bilishni o‘rgatadi.

O‘quv qo‘llanma 5620700-Yer tuzish va Yer kadastro va 5140900-Kasb ta’limi (Yer tuzish va Yer kadastro) bakalavriatura ta’lim yunalishlarida ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**B.BYerkinov**, Toshkent iqtisodiyot univYersiteti« Makro iqtisodiyot» kafedrasi mudiri,i.f.d.professor.

**Q.Raxmanov**, TIMI, «Gedeziya va Yer kadastr kafedrasi», dotsenti.

## **KIRISH**

Yetuk va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarning asosiy davlat ahamiyatidagi masalasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham bilimli kadrlarni tayyorlash, ularning qobiliyatini oshirish va raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va qadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997 y.) qabul qilingan. Ta’lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda davlat bosh islohotchi vazifasini bajarmoqda. Ta’lim sohasidagi qonun, dastur va amalga oshirilayotgan ishlarga maqsad qilib bilimli, ishbilarmon va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi qo‘yildi.

Mamlakatimiz Prezidenti ta’kidlaganidek “Bugungi kunning eng muhim vazifasi – hayotimizning barcha sohalarida, ayniqsa, boshqaruvda, respublika miqqosida, viloyat, shahar, tuman, qishloq va mahallalarni boshqarishda, tarmoq bo‘g‘inlarini idora etishda yangicha fikrlaydigan, qiyin damlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola biladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirishdan iboratdir.

Har bir sohani uning tasarrufidagi tashkilot, korxonalarni boshqarish aniq bir maqsadga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim. Barcha hollarda ham boshqaruv faoliyati inson orqali amalga oshiriladi. Shu sababdan yer tuzish ishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va umuman boshqarishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash zamonaviy va dolzarb masala hisoblanadi. Bo‘lajak kadrlar o‘z sohasi to‘g‘risida chuqur bilimga ega bo‘lishi, kelgusi faoliyat uchun mustahkam zamin yaratmoqni taqazo etmoqda”.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, barcha jabhalarda keng qamrovli islohotlar o‘tkazildi. Xususan, yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishga alohida etibor qaratildi. Yer xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari tizimida va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etishtirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Shu bois, u xalq hayoti va faoliyati va farovonligida birinchi darajada ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan boshlab berilgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarni chiqurlashtirish hamda eng ustuvor yo‘nalishlarni rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlari, Respublika Prezidentining 2006-yil 24 iyuldagagi “yuridik shaxslar va fuqarolarning binolari hamda inshootlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalarini hususiylashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni va bir qator huquqiy qarorlar qabul qilinib, normativ-huquqiy hujjatlarning tasdiqlanishi mamlakatimizda yer resurslaridan oqilona foydalanishning huquqiy zamini yaratildi.

Yer munosabatlarini tartibga solishda yagona davlat siyosatini yuritishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 24 oktyabrdagi PF-3503 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro Davlat qo‘mitasi tashkil qilish to‘g‘risida”gi Farmoni va Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 19 oktyabrdagi 483-tonli Qarori bilan Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro Davlat qo‘mitasi tashkil etildi. Ushbu qo‘mitaga Yer resurslaridan oqilona foydalanish, Yer munosabatlarini tartibga solish, Yer kadastrini yuritish, Yer tuzish va Yer monitoringini tashkil qilish, tuproq unumdoorigini saqlash, oshirish va qayta tiklash borasida yagona Davlat siyosatini yuritish, yerlardan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish kabi vazifalar yuklatildi. Ushbu masalani hal qilishda shu sohaning bilimdon, etuk, namunali va madaniyatli kadrlarini etkazishni taqazo etmoqda.

Shuning uchun ham “Yer tuzish ishlarini tashkil qilish va rejorashtirish” fanini o‘rganish zarur. Fanni o‘rganishdan maqsad mehnatni to‘g‘ri tashkil qilish asoslari bo‘yicha yer tuzish xizmatiga kiruvchi loyiha tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislari mehnatining sifatiga, ularning mehnatini to‘g‘ri tashkil qilishga, tannarx, sof daromad, mehnat xaqi fondi va loyiha-qidiruv ishlarini ishlab

chiqishdagi asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha yaxshi natijalarga erishishga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Fanni o‘rganishning asosiy vazifasi bugungi kundagi ilm-fan yutuqlaridan va ilg‘or texnologiyalardan foydalanib, kam mablag‘ va mehnat sarflab, yuqori sifatli loyiha-qidiruv ishlarini bajarish hamda mavjud materiallar, kadrlardan unumli foydalanish yo‘llarini o‘rgatishdan iboratdir.

Bo‘lg‘usi mutaxassis yer tuzish xizmati faoliyatini o‘rganishi, yer tuzish bo‘yicha ishlarning tarkibini, ishlab chiqarish jarayonini bilishi, yer tuzish ishlarini bajarishda ilmiy asoslangan me’yorlardan foydalanishni bilishi, mehnatni to‘g‘ri tashkil qilish asoslarini, boshqarish usullarini bilishi, yer tuzish bo‘yicha ishlarni rejalashtirishni, ilg‘or texnika va texnologiyalarni tadbiq qilish yo‘llarini bilishi kerak.

Yer tuzish ishlarini tashkil qilish va rejalashtirish fanini yaxshi o‘zlashtirishi uchun talabalar quyidagi fanlarni chuqur o‘rganishlari kerak: Yer tuzishning ilmiy asoslari, Yer tuzishni loyihalash, Yer kadastro, Yer tuzish iqtisodi, Yer huquqi, Geodeziya, Kartografiya, Yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari.

O‘quv qo‘llanma shu mavzu bo‘yicha ma’ruzalar kursi va boshqa me’yoriy hujjatlar matYeriallaridan foydalanib yozildi. O‘quv qo‘llanma qishloq xo‘jalik Oliy o‘quv yurtlarining 5620700 (5410700)- “Yer tuzish va Yer kadastro” va 5140900 (5111000)- “Kasb ta’limi” bakalavriat yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

## **1-BOB. YER TUZISH ISHLARINI TASHKIL QILISH VA REJALASHTIRISH TUSHUNCHASI**

### **§ 1. Yer tuzish ishlarini tashkil qilish va rejalashtirish fanining predmeti, usullari va tamoyillari**

Yer – jamiyat boyligining asosi hamda boshlang‘ich manbai, xalq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirishning asosiy poydevoridir. U qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasidir.

Yerlardan samarali foydalanish muammosi faqat qishloq xo‘jaligi uchungina emas, balki xalq xo‘jaligining yerdan foydalanuvchi barcha tarmoqlariga to‘la ta’luqlidir.

Yer resurslaridan oqilona foydalanish ularni albatta birinchi galda ilmiy asoslangan holda tuzishni taqazo qiladi. 1998 yil 28 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”da ta’kidlanganidek, “Yer tuzish, Yerdan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishga, yer resurslarini hisobga olish va baholashga, qulay ekologik muhitni vujudga keltirishga va tabiiy landshaftlarni yaxshilashga, yer tuzishga qaratilgan tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi ” (12-modda).

Yer tuzish bo‘yicha tadbirlar tizimi yerga bo‘lgan mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar yer egaliklari va yerdan foydalanishning paydo bo‘lishiga, rivojlanishiga, takomillashishiga, yer resurslaridan foydalanishni tashkil etishga, uning mazmuni o‘zgarishiga, yer turlarining tarkibi, nisbati va ularni joylashtirishga, boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda ishchi kuchlarni joylashtirish, tashkil etish bilan birga ularning hududiy joylashuvi hamda ichki maydonlarini tuzishga imkon beradi. Yer tuzish ishlarining amalga oshirilishi qishloq xo‘jalik korxonalarida xo‘jalik yuritishning zamonaviy shakllarini tadbiq etish, mehnatning samarali uslublarini belgilash uchun asos bo‘ladi.

Yuqorida qayd qilingan barcha tadbirlar maxsus yer tuzish tashkilotlari, aniqrog‘i respublikamizda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi

Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qo‘mitasining tarkibidagi “O‘zdavyerloyiha” ilmiy loyihalash instituti hamda uning joylardagi filiallari va bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Yer tuzish xizmati organlarining faoliyatini umumlashtiradigan bo‘lsak, ular umumdavlat, tarmoq, xo‘jaliklararo hamda ichki xo‘jalik kabi yer tuzish ishlarni amalga oshiradilar.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqqan holda yer tuzish bo‘yicha ilmiy loyihalash institutining asosiy vazifasi – fan va ilg‘or tajribalar yutuqlaridan foydalanilgan holda turli bashoratlash, loyiha-qidiruv, tasvirga olish, kuzatuv hamda xalq xo‘jaligida, qisman qishloq xo‘jaligida har bir gektar yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga qaratilgan boshqa ishlarni bajarishdan iboratdir.

Yer tuzish bo‘yicha loyiha instituti hisoblangan “O‘zdavyerloyiha” hamda uning ishlab chiqarish bo‘linmalari faoliyatiga rahbarlik asosan quyidagi bir-birlariga bog‘liq bo‘lgan harakatlar asosida amalga oshirilmoqda, ya’ni ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish.

Ishlab chiqarishni tashkil qilish deganda, oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish jarayonida mavjud moddiy va mehnat resurslarining birlashishi tushuniladi.

Yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlarida rejalashtirish umumiyo ko‘rinishda ish hajmlari va ularni bajarish uchun mablag‘larga bo‘lgan talabni aniqlash, mutaxassislar mehnat unumдорligini, kutilayotgan moliyaviy natijalarni moddiy, pul harajatlari miqdorini aniqlashdan iboratdir.

Qayd qilish joizki, tashkil qilish va rejalashtirish o‘zaro bir-biriga bog‘liqdir va u aniq bir tashkilotda yagona birlikni tashkil etadi. Bundan o‘zaro bog‘liqlik eng avvalo shunda namoyon bo‘ladiki, rejalashtirishda ilmiy loyihalash instituti texnikani, texnologiyani, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish imkoniyatlarini hisobga oladi. Tasdiqlangan rejalarni bajarish bir vaqtning o‘zida yer tuzish bo‘yicha ishlarni tashkil etish asosida amalga oshiriladi.

“O‘zdaverloyiha” instituti hamda uning joylardagi bo‘limmalari faoliyatlarini o‘rganish shundan darak beradiki, ishlab chiqarishni tashkil qilish va rejalashtirishda mehnatni me’yorlash ham muhim ahamiyatga egadir. Negaki, mehnatni me’yorlash asosida loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlari amalga oshiriladi, me’yorlangan va bajarilgan ish hajmlariga qarab muhandis-texnik xodimlarga ish haqi to‘lanadi. Me’yorlarga qarab reja bajarilgan yoki bajarilmaganligi aniqlanadi.

Ishlab chiqarishga rahbarlik qilishda boshqaruв alohida o‘rin tutadi. Boshqarish deganda odatda sub’ektning boshqarilayotgan ob’ektga doimiy aniq yo‘naltirilgan ta’siri tushuniladi.

Yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlarida ishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan rahbar xodimlari va mutaxassislarining mehnatiga, ularning tashkil etilganligiga, ishlab chiqarish samaradorligiga va ish joylaridagi tartibga bog‘liqdir. Ishlab chiqarishni kam harajat va mablag‘ asosida loyiha-qidiruv ishlarining yuqori sifatli ko‘rsatkichlarga yerishish mutaxassislardan samarali foydalanishning ratsional shakllarini o‘rnatish nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Shu sababli, mehnatni to‘g‘ri tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish asoslarini, usullarini va tamoyillarini bilish nafaqat rahbar xodimlar, balki har bir mutaxassis uchun muhimdir. Shundan kelib chiqqan holda yer tuzishni tashkil qilish va rejalashtirish fanining predmeti bu yer tuzish bo‘yicha ishlab chiqarishni tashkil qilish qonuniyatlari va rejalashtirishning uslubiyatlari va yo‘llarini o‘rgatadigan fandir.

## **§ 2. Yer tuzish tizimi va bu tizimda Yer tuzish ishlarini tashkil qilish va rejalashtirish fanini tutgan o‘rni**

Hozirgi davrda O‘zbekiston aniq yer tuzish tizimi tashkil topdi. Bu tizim davlatimiz yer resusrslarini boshqarish sohasiga kiradi va yer qonunlarini hayotga tadbiq qilish, yerdan samarali va to‘la foydalanishni tashkil qilish, yerni muhofaza qilish, toza ekologik muhit yaratish va tabiiy landshaftlarni yaxshilash kabi vazifalarni bajaradi.

Yer tuzish tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- qonunlar bilan belgilangan yer tuzish ishlari;
- aniq qonuniy belgilangan yer tuzish ishlarini bajarish tartibi;
- yer tuzish hujjatlarining tasdiqlangan ro‘yxati;
- yer tuzish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi maxsus tashkil etilgan yer tuzish xizmati;

- yer tuzishni tashkil qilish;

- yer tuzish qatnashchilar;

- mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Yer tuzish ishlarini tashkil etish va rejalashtirish fani yer tuzish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi maxsus tashkil etilgan yer tuzish xizmati va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, vazifalari va faoliyatini o‘rgatadi.

Yer tuzish xizmatlarida yer tuzish ishlarini tashkil qilish, yer tuzish qatnashchilarining vazifalari, ularning ishlarini bajarish tartibi, yer tuzish ishlarida mehnatni me’yorlash, mehnatga xaq to‘lashni tashkil qilish shu fan orqali talabalar bilimga ega bo‘ladilar.

## **2-BOB. YER TUZISH XIZMATI TO‘G‘RISIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR**

### **§ 1.Yer tuzish xizmatining rivojlanishi va takomillashishi**

Tarmoq tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning ildizlari XX asrning uzoq 30 yillariga etib borishiga guvoh bo‘lamiz. U vaqtarda mamlakatimizda aniq va ob’ektiv geodeziya va kartografiya materiallarining mavjud emasligi ishlab chiqarishning quvvatlari rivojiga halal berardi.

Ma’lumki, to‘laqonli geodeziya va kartografiya asosini yaratmay turib, davlat mudofaa salohiyatini to‘liq ta’minlashni, qidiruv, loyihalash, ob’ektlar va inshootlarni qurish ishlarini amalga oshirib bo‘lmaydi. Talab darajasidagi qishloq

xo‘jalik xaritasi va yer balansi bo‘yicha aniq hisob-kitobning yo‘qligi ob’ektiv xo‘jalik boshqaruvi hamda yerdan oqilona foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo‘ygandi. Shu tufayli, respublikada yer tuzish xizmatini barpo etish zaruriyati yuzaga keldi.

Respublikada yangi tipdagи yer tuzish xizmatining tashkil etilishi uzoq kolxoz tuzumi davriga to‘g‘ri keldi, ya’ni Sobiq Ittifoq Xalq Komissarlari Sovetining 1935 yil 7 iyuldagи «Qishloq xo‘jalik artellariga yerdan umrbod (abadiy) foydalanish huquqini beruvchi davlat aktlarini berish to‘g‘risida» gi qaroriga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq Komissariyati qoshida yer tuzish bo‘limi tashkil etildi. Bu bo‘lim tomonidan davlat aktlari tayyorlash, yerkarni rasmiylashtirish va tarqatish, qishloq xo‘jalik artellarining chegaralarini joyda belgilash, ularning yerlarini talon-taroj qilinishining oldini olish bo‘yicha juda katta hajmdagi ishlar bajarildi. 1950 yillarga kelib, bu bo‘lim Respublika Qishloq Xo‘jaligi Vazirligi qoshida “Yer tuzish va almashlab ekish” boshqarmasiga aylantirildi. 1961 yilga kelib, “Qishloq Xo‘jaligi Vazirligini qayta tashkil qilish to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan, yer tuzish xizmati tarkibi ham o‘zgartirildi. Faoliyat ko‘rsatib kelayotgan bu boshqarma ham “Yerlardan foydalanish va Yer tuzish” boshqarmasiga aylantirildi. 1967 yilga kelib, “Tuproqni suv va shamol eroziyasidan muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish to‘g‘risida”gi Qarorga asosan, Yer tuzish xizmati zimmasiga ham tuproq eroziyasiga uchragan qishloq xo‘jalik korxonalari hududlarini tashkil qilish uchun tashkiliy xo‘jalik, agrotexnik, o‘rmon-meliorativ va gidrotexnik tadbirlarni joriy qilish bilan bog‘liq ilmiy asoslangan loyihalarni ishlab chiqish ishlari yuklatildi. SHunga asoslanib, Qishloq Xo‘jalik Vazirligi huzurida “Tuproqlarni muhofaza qilish bo‘yicha davlat inspeksiyasi” tashkil qilindi. Viloyatlarda ham qishloq xo‘jaligi boshqarmasi qoshida bo‘limlar tashkil qilindi. Keyinchalik 1980 yillarning o‘rtalariga kelib, “yer tuzish, yerdan foydalanish va yerkarni muhofaza qilish” Bosh Boshqarmasiga aylantirildi. Boshqarma o‘z faoliyati davrida asosan quyidagi vazifalarni bajargan:

- respublika hududidagi yerlardan foydalanish va muhofaza qilish davlat nazoratini o‘rnatish;
- davlat yer kadastrini yuritish hamda viloyatlar, avtonom respublikada har yili yer hisobini amalga oshirishni tashkil qilish;
- yer maydonlaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga yo‘naltirilgan tadbirlarni rejalashtirishda qatnashish;
- yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish, shuningdek yer tuzish bo‘yicha loyiha-qidiruv ishlarini yaxshilashga qaratilgan fan va texnikaning ilg‘or yutuqlarini hamda tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish.

1991 yilga kelib, O‘zbekiston Respublikasi mustaqil demokratik davlatga aylandi. Respublikamiz musatqillikka erishgandan so‘ng, barcha jabhalarda keng qamrovli islohotlar o‘tkazishga kirishildi. Xususan, yer resurslaridan samarali foydalanish tamoyillariga alohida e’tibor qaratildi. Shundan kelib chiqqan holda 1998 yil 30 aprelda O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan 1-chaqiriq IX sessiyasida “Yer kodeksi” qonunlar majmuasi qabul qilindi, shu sababli yer tuzish tizimida ham o‘zgarishlar yuz berdi.

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy qayta qurish siyosati natijasida yer munosabatlarini takomillashtirishga, yer resurslaridan unumli foydalanish darajasini oshirishga qaratilgan shart - sharoitlar yaratildi. “Yer kodeksi” qoidalarini ro‘yobga chiqarish, yerga oid munosabatlar sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, yer resurslarini boshqarish tartibini takomillashtirishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 24 iyuldaggi PF 2059 - sonli farmonini bajarish yuzasidan Qishloq va Suv Xo‘jaligi Vazirligining Yer tuzish va Yerlardan foydalanish boshqarmasi hamda Yerlardan foydlalanishni nazorat qilish bo‘yicha davlat inspeksiyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Yer Resurslari Davlat Qo‘mitasi tashkil qilindi.

Uning asosiy vazifasi yer resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”

va yer konunchiligining boshqa hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, davlat boshqaruv organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning yerlardan foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat bo‘ldi.

2004 yil oxirlariga kelib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada Davlat Boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2003 yil 9 dekabrdagi PF – 3358 - sonli farmonini bajarish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 2004 yil 19 oktyabrda 483- sonli “O‘zbekiston Respublikasi Yer Resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro Davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. “Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Geodeziya, Kartografiya va Davlat Kadastro Bosh Boshqarmasi va Yer Resurslari Davlat qo‘mitasi negizida tashkil qilindi. “Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasi Yerlardan foydalanish, yer tuzish, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni tartibga solish bo‘yicha davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Hozirgi kunda qo‘mita tomonidan yangi davlat koordinatalar tizimini kiritishga o‘tish amalga oshirilmokda. 2007-2011 yillarda O‘zbekistonda hududiy rivojlantirish yagona kompleks strategiyasini shakllantirish davlat dasturi doirasida “Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasi Respublikaning har bir mintaqasida hududlar rivojlanishini tahlil qilish va bashoratlash uchun kartografiya axborot resurslarini shakllantirish imkonini beruvchi geografik axborot tizimini bosqichma-bosqich joriy qilishga kirishildi. “Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasi yer munosabatlarini tartibga solish sohasida xorijiy davlatlarning loyihalarida ham faol ishtirok etmoqda.

## **§ 2. Yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlari**

Yer tuzish bo‘yicha O‘zbek davlat yer tuzish loyihalash instituti O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv Xo‘jaligi Vazirligi qoshidagi yer tuzish bo‘yicha mavjud ekspeditsiya va partiyalar negizida 1961 yilning 24 martdagি Vazirlar

Kengashining 205-sonli qaroriga asosan tashkil etildi. Uni tashkil etishdan asosiy maqsad respublika yer maydonlaridan foydalanishni tashkil etish, uni muhofaza qilish hamda dexqonchilik madaniyatini oshirish sohalarida davlat organlarining qarorlarini hayotga tadbiq qilishga yo'naltirilgan kompleks yer tuzish tadbirlari bo'yicha kuzatuv va loyiha qidiruv ishlarini bajarishdan iborat bo'ldi. Institut tashkil etilgandan keyin birin-ketin viloyatlarda ham faoliyat ko'rsatib kelayotgan yer tuzish ekspeditsiyalari negizida yer tuzish bo'yicha kompleks loyihalarining filiallari va bo'limlari tashkil etildi.

Tashkil etilgan filial va bo'limlarning asosiy ish faoliyati viloyat hududlarining yer maydonlaridan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish va yerlarning unumdorligini oshirishga qaratilgan turli-tuman yer tuzish va yer kadastro ishlarini bajarishdan iborat bo'ldi.

1959 yildan boshlab tuproq kuzatuv ekspeditsiya nomi bilan tashkil topgan, 1961 yildan boshlab tuproq ekspeditsiyasi nomini olgan ekspeditsiya institut ixtiyoriga berildi. 1989 yildan boshlab ekspeditsiya instituning yer kadastro filialiga aylantirildi. Tashkil etilgan kundan beri yer kadastro filiali respublikamizning aksariyat hududlari bo'yicha 3 yoki 4 marta yirik miq'yosli tuproq va tuproq meliorativ tadbirlarini ishlab chiqdi. Bundan katta hajmdagi tuproq kuzatuv ishlarining natijalari hozirgi kunda respublika bo'yicha yagona tuproq – kimyoviy ma'lumotlar bankini yaratish imkoniyatini berdi. Bu esa o'z navbatida, qishloq xo'jalik korxonalari uchun ishlab chiqarilayotgan yer tuzish loyihalarining hayotiyligini oshirish imkoniyatini yaratdi.

1993 yilga kelib, institut tarkibiga "Geoaxboratkadastr" unitar korxonasi xo'jalik hisobidagi bo'lim sifatida kiritildi. Unitar korxonasiga yer tuzish va yer kadastro ishlarini olib borish maqsadlari uchun O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini plan-xarita materiallari bilan ta'minlash yuklatildi. Unitar korxonasiga chet davlatlaridan ilg'or texnologiyalar olib kelindi, plan-xaritalarni kompyuterlar yordamida tayyorlash yo'lga qo'yildi. Institutning tashkil etilishi respublika yer resurslarini xar tomonlama chuqur o'rganishga hamda shu asosda barcha yer

kadastro ishlari amalga oshirish imkonini berdi. Bajariladigan yer tuzish ishlari chuqur iqtisodiy asoslana boshlandi, o‘z tarkibiga yer tuzishga yaqin bo‘lgan qator muhandislik masalalarini, jumladan, sug‘orish, agroo‘rmon melioratsiyasi, Yeroziyaga qarshi kurash tadbirlarini ola boshladi. SHu yili, ya’ni 1993 yili Qishloq Xo‘jaligi Vazirligining qaroriga asosan, institut respublikada yagona bo‘lgan O‘zbek Davlat ilmiy loyihalash institutiga aylantirildi. SHu yili viloyatlarda ham loyihalash bo‘limlarini kompleks loyihalash bo‘limlariga aylantirildi. Bu esa ularga o‘z-o‘zini mustaqil boshqarish tamoyillari asosida harakat qilishga yo‘l ochildi.

Institut va uning hududiy bo‘linmalari o‘zining ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariga, “Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasining buyruq va farmoyishlariga hamda o‘zining Nizomiga asoslangan holda faoliyat kursatadilar. Institut va uning hududiy bo‘linmalari ish va xizmatlar ko‘rsatishni, shu hisobda davlat extiyojlari uchun shartnomaviy asosda amalga oshiradilar. Davlat buyurtmalari institut va uning hududiy bo‘linmalari uchun ustuvor hisoblanadi va yuridik shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Mustaqil balansga ega, bankda o‘z hisob – kitoblari mavjud, muxr va tamg‘asiga ega.

### **3-BOB. YER TUZISH HARAKATLARI, ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA YER TUZISH BO‘YICHA LOYIHA TASHKILOTLARI BAJARADIGAN ISHLAR TARKIBI**

#### **§1.Yer tuzish harakatlari va ishlar tarkibi**

Yer tuzish bu davlat tadbiri bo‘lib, u iqtisodiy qonunlar asosida va xalq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha davlatimiz qarorlari ostida olib boriladi. Hamma Yer tuzish ishlari davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Bu ishlar davlat loyiha-qidiruv tashkilotlari tomonidan bajariladi. Loyiha ishlari texnik-iqtisodiy hisoblarga asoslangan me’yorlar va me’yoriy ko‘rsatkichlarga tayangan holda bajariladi. Ko‘p

loyiha ishlarida huquqiy masalalar ham ko‘riladi. yer-hisob hujjatlarida ham bajarilgan ishlar ko‘proq o‘z aksini topadi.

SHuning uchun ham yer tuzish loyihalari o‘zining mazmuni jihatidan muhandislik-iqtisodiy, shakli bo‘yicha esa, huquqiy va yer-hisob shaklida bo‘ladi. Yer tuzish bo‘yicha loyiha-qidiruv tashkilotlari tomonidan bajariladigan asosiy ishlar tarkibi “Yer kodeksi” ning yer tuzish bobida keltirilgan. Shu bobda quyidagi Yer tuzish harakatlari keltirilgan:

- yangi yerga egalik qiluvchilarni, yerdan foydalanuvchilarni, ijarachilarni, yer mulkdorlarini tashkil qilish va mavjudlarining yer uchastkalarini tartibga solish hamda yer uchastkalari noqulay bo‘lgan joylashuvini bartaraf etish bo‘yicha loyihalar tuzish;

- yangi tashkil bo‘layotgan, qaytadan tiklanayotgan qishloq xo‘jalik korxonalariga, muassasalarga, tashkilotlarga yer ajratish bo‘yicha loyiha tayyorlash;

- ovullar, qishloqlar, shahar tipidagi qishloqlar, tumanlar, shaharlar, viloyatlar chegaralarini joyda o‘rnatish;

- davlat va jamoatchilik extiyojlari uchun korxona va muassasalarga, tashkilotlarga yer olib berish loyihalarini tuzish;

- yer uchastkalarini joylashgan joyida ajratib berish, yerga egalik qilishga yoki foydalanishga, ijrada foydalanishga va ega bo‘lishga huquq beruvchi yuridik hujjatlar tayyorlash;

- yerdan foydalanishni yaxshilash va ularni muhofaza qilish bo‘yicha ishchi loyihalar tuzish;

- resurslarni baholash, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha yer tuzish hujjatlarini tayyorlash;

- yerlarni baholash bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish;

- ichki xo‘jalik yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish;

- yer kadastrini yuritish uchun topografo-geodezik, xarita, chizma, tuproq, geobotanik, dala qidiruv va boshqa tekshiruv ishlarini o‘tkazish.

Yer tuzish 4 ta asosiy turga bo‘linadi:

- istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish
- loyihalash oldidan amalga oshiriladigan yer tuzish;
- xo‘jaliklararo yer tuzish;
- ichki xo‘jalik yer tuzish.

Bundan tashqari, yer tuzish tarkibiga topografiya, geodeziya, kartografiya, tuproq, agrokimyo, geobotanika va tarixiy-madaniy yo‘nalishda olib borish, tekshirish hamda izlanish ishlari kiradi.

## **§2. Ishlab chiqarish jarayoni**

Har qanday ishlab chiqarish jarayoni loyiha tashkilotlari, qishloq xo‘jalik korxonalari va davlat tashkilotlarining mutaxassislari mehnatining yig‘indisidan iboratdir. Bunga misol qilib, ichki xo‘jalik yer tuzish loyiha ishlari jarayonini keltiramiz. Ichki xo‘jalik yer tuzish loyihasini tuzish uchun tayyorgarlik ishlari olib borilishi kerak. Tayyorgarlik ishlari quyidagilardan iborat: plan-kartografiya va tekshiruv hujjatlarini to‘plash, ulardan oldingi yillarda bajarilgan loyiha hujjatlarini o‘rganish, tahlil qilish, xo‘jalik yer maydonini hisoblash qaydnomasi, uning rivojlantiruvchi tashkiliy – iqtisodiy ko‘rsatkichlarda keltirilgan ma’lumotlar shular jumlasidandir. Bu loyiha ishlarini yer tuzuvchi muhandis bilan birgalikda shu tashkilotda ishlovchi agronom, iqtisodchi bajaradi. To‘plangan materiallar o‘rganilib, tahlil qilingach, xo‘jalikda dala tekshiruv ishlari olib boriladi. Dala tekshiruv ishlari loyiha tashkilotining mutaxassislari xo‘jalik mutaxassislari bilan birga bajaradilar yerdan foydalanish, muhandislik inshootlari bilan ta’minlanganlik, yerdan foydalanish samarasini oshirish, ularni suv va shamol eroziyasidan saqlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarini aniqlaydilar. Tekshirish jarayonida dala jurnali yuritiladi. Natijalar akt (dalolatnoma va tekshiruv chizmasi) bilan rasmiylashtiriladi, xo‘jaliklarda ko‘rib chiqiladi. Bu ishlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi mutaxassislар mehnatining to‘g‘ri tashkil qilinishiga va kerakli barcha materiallar, transport vositalari bilan to‘liq ta’minlanganligiga bog‘liq. Ichki

xo‘jalik yer tuzish loyihalarining keyingi bosqichida, loyiha tashkiloti mutaxassislari, qishloq xo‘jalik korxonalari mutaxassislari hamda qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasi mutaxassislari bilan birgalikda loyiha topshirig‘ini ishlab chiqadilar. Topshiriqni ishlab chiqishda xo‘jalikning kelajakda rivojlanish rejasi, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish sohalarini joylashtirish va ixtisoslashtirishning tuman sxemasi hamda tayyorgarlik va tekshiruv ishlari materiallaridan foydalaniladi. Loyiha uchun topshiriq loyiha tashkilotida, xo‘jalikda, qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasida ko‘rib chiqiladi hamda belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Tayyorgarlik va tekshiruv ishlari hamda topshiriq asosida muhandislik-iqtisodiy harakterga ega bo‘lgan loyihani tuzishga kirishiladi. Loyihani ishlab chiqish jarayonida ma’lum muddatga yerdan foydalanish va ishlab chiqarishni rivojlantirish, xo‘jalikning tashkiliy-ishlab chiqarish tarkibi, ishlab chiqarish bo‘limlari va xo‘jalik markazlarini joylashtirish, ichki xo‘jalik yo‘llarini loyihalash, yer turlari va almashlab ekishni tashkil qilish, pichanzorlar, yaylovlar, bog‘lar, uzumzorlar va rezavor bog‘larning hududini tashkil qilish masalalari echiladi. Mazmuniga ko‘ra, loyihani ishlab chiqishni bir vaqtning o‘zida ikki qismga bo‘lish mumkin: Loyihaning tashkiliy xo‘jalik ishlanmasi va uning chizmasini texnik jihatdan bajarilishi. Loyihaning birinchi qismini loyiha tashkiloti mutaxassislari xo‘jalik mutaxassislari bilan birga bajaradi. Shu bilan bir qatorda, agronom-iqtisodchilar, yer tuzuvchilar, irrigatorlar va boshqa mutaxassislar ham unda ishtirok etishadi. Loyihaning ikkinchi qismini asosan yer tuzuvchilar bajarishadi. Tayyorlangan loyiha ko‘rib chiqiladi va belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Bu bosqichni amalga oshirishda loyiha materiallarining mavjudligi, topshiriqning o‘z vaqtida berilishi, loyihani bajarish bo‘yicha texnik qo‘llanmalarning mavjudligi, loyiha elementlarining tartibini va o‘z vaqtida bajarilishi, u bilan shug‘ullanuvchi barcha shaxslar o‘rtasida kelishuvning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Ishning keyingi bosqichida loyiha joyiga ko‘chiriladi. Loyihani ko‘chirish, maydonlarini texnik loyihalash singari ishlar bitta mutaxassis yoki guruh tomonidan bajariladi. Loyihani ko‘chirish jarayonini Yer tuzuvchi bilan ishchilar birgalikda bajaradilar.

U tashkiliy-texnik elementlar yig‘indisidan tashkil topadi. Tugallangan ish texnik hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi va guruh rahbari tomonidan tekshiriladi, so‘ngara xo‘jalikdan kelgan vakilga topshiriladi. Keyingi bosqich uni ko‘paytirish hamda buyurtmachilarga topshirish uchun loyihaning asl nusxasini va hujjatlarini taYorlashdan iborat. Bu ichki yer tuzish bo‘yicha ishlarni loyiha tashkilotiga qarashli bo‘lim mutaxassislari bajarishadi. Uni bajarishda mehnatni me’yorlash va haq to‘lash, texnik vositalar mavjudligi, ishga rahbarlik qilish va ishni bajarish sifatini nazorat qilib borish muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, ichki yer tuzish bo‘yicha ishlarni bajarishda loyiha tashkiloti mutaxassislaridan aqliy va jismoniy mehnatni talab qiladi.

### **§3. Ishlab chiqarishni tarkibiy qismlarga bo‘linishining asosiy xususiyatlari**

Yer tuzish bo‘yicha ko‘pgina ish turlari, ayniqsa ichki xo‘jalik yer tuzish, muhandislik, iqtisodiy, texnik, huquqiy va boshqa harakatlarni o‘z ichiga oladi. Ularni bajarish uchun turli xil malakaviy mutaxassislar talab qilinadi. Undan tashqari, alohida ish turlari ma’lum sharoitlarda bajarilishi mumkin. Misol uchun xo‘jalik hududini tekshirish, loyihani joyiga ko‘chirish jarayonini olib ko‘raylik. Bu ishlar faqatgina ob’ektda va dalaning o‘zida bajariladi. Birinchi bosqich ishlarini yuqori malakali mutaxassislar guruhi tomonidan bajarilishi lozim bo‘lsa, ikkinchisini katta texnik yoki texnik bajaradi. Shu sababli mehnatni to‘g‘ri taqsimlash uchun ishlab chiqarish jarayonini tarkibiy qismlarga ya’ni alohida jarayonlarga bo‘lish talab qilinadi. Ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy qismlarga bo‘lishning yana bir muhim sababi bor. U ham bo‘lsa, loyiha ishlariga vaqtbay mukofotli haq to‘lash, texnik va chizma ishlarga esa ishbay mukofotli haq to‘lashning joriy qilinganligidir. Xaq to‘lash tizimlarini ko‘llash bajariladigan ishlar mazmunini va harakterini hisobga oluvchi ishlab chiqarish va vaqt me’yorlarining mavjudligidir. Texnik ishlarga asoslangan ishlab chiqarish me’yorlarini o‘rnatish nafaqat alohida ishlab chiqarish jarayonlariga ajratishni, balki ularni yanada

kichikroq qismlarga – “elementlar” ga bo‘lishni taqazo qiladi. Bundan tashqari ishlab chiqarish jarayonining bo‘linishini nafaqat loyiha ishlarida, balki loyiha tashkilotining ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish hamda mehnat va mablag‘ sarfini o‘rnatish zaruriyati bilan bog‘liqdir. U ayniqsa, ishni bajarish joyini, mutaxassislarning malakasini, mehnatni tashkil qilish shakllarini hisobga oluvchi ishlarni baholash hamda qiymatlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish jarayonini tarkibiy qismlarga bo‘lmastan turib, ishlab chiqarishni, hisob-kitob va boshqarishni kerakli darajada yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi. Umumiy ko‘rinishda ishlab chiqarish jarayonini tarkibiy qismlarga ajratish quyidagi sharoitlarga asoslanadi:

1. Ko‘pgina ishlarni harakteri va bajarish joyiga nisbatan dala va kameral ishlarga bo‘linishi;
2. Mazmuni bo‘yicha loyiha texnik va chizma qismlarga bo‘linishi.

Ishlab chiqarish jarayonini tarkibiy qismlarga bo‘lishda quyidagilar hisobga olinishi kerak: ish elementlarining ketma-ket bajarilishi, uning tashkiliy-texnik jihatdan ta’minlanganligi.

#### **§4. Yer tuzish bo‘yicha loyiha va qidiruv ishlarining bosqichlari**

Ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy qismlarga ajratilgan bo‘lagi bosqichlar deb aytildi. Bosqich ishning tugallangan ma’lum bir qismi bo‘lib, u bir-biri bilan uzviy bog‘langan elementlar yig‘indisidan iboratdir. U o‘zaro tashkiliy-texnikaviy munosabatda bo‘ladi. Yer tuzish bo‘yicha loyiha-qidiruv va boshqa ishlar o‘zining mazmuni, harakteri hamda vaqtini va bajariladigan joyiga nisbatan bir qator xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham bosqichlarga ajratilayotganda bajarish muddatlari hisobga olinishi kerak.

Bundan tashqari, ko‘p ish turlari qidiruv, loyihalash, texnik va chizma ishlarga bo‘linganligi, xattoki texnologik jarayonlarga, bajarilish joyiga va muddatiga bog‘liqligini bosqichlarga bo‘lishda hisobga olinishi kerak.

Yer tuzish bo‘yicha loyiha ishlari quyidagi bosqichlar asosida o‘tkaziladi:

- tayyorgarlik ishlari;
- loyihani tuzish;
- loyihani ko‘rib chiqish va tasdiqlash;
- loyihani joyiga ko‘chirish;
- yer tuzish hujatlarini tayyorlash;
- loyihani amalga oshirish.

## **§5. Yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlari bajaradigan ishlar tarkibi**

Ishlar tarkibi deganda, ishlarni guruhlarga, turlarga, turlarni bosqichlarga, bosqichlarni esa elementlarga bo‘linishi tushuniladi.

Yer tuzish, yer kadastro va yer monitoringi bo‘yicha loyiha – qidiruv ishlarini bajarishga sarflanadigan vaqt me’yorlarni aniqlash to‘plamida ishlar tarkibi bo‘yicha guruhlarga bo‘linishi keltirilgan, ular quyidagilardan iborat:

- bashoratlash ishlari (yerdan foydalanish va yer tuzish sxemalari);
- loyihalash ishlari (xo‘jaliklararo va ichki xo‘jalik yer tuzish loyihalari, ishchi loyihalar);
- tekshiruv ishlari (tuproq, geobotanik);
- topografo-geodezik ishlar (syomka, chegaralarni tiklash, loyihani joyiga ko‘chirish);
- hisoblash ishlari;
- chizma-rasmiylashtirish ishlari.

## **4-BOB. YER TUZISHDA REJALASH ASOSLARI VA REJALAR TIZIMI**

### **§1. Rejalarni tuzish uslublari, tamoyillari va mohiyati**

Xalq xo‘jaligini rejalashtirish tizimining mohiyati shundan iboratki, jamiyatni rivojlantirishni ilmiy tomondan ko‘ra bilish, bu iqtisodiy qonunlarni bilishga asoslangan holda olib borishdir. Rejalashning xaqiqiyligi shu bilan

ta'minlanadiki, bunda ishlab chiqarish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: iqtisodni siyosat bilan birligi, demokratik markazlashganligi, ilmiylik, asoslanganligi, uzlucksizligi, bosh bo'g'inni tanlay bilishlik.

Uzoq muddatga rejalashtirishda qo'llanish sohasi hamda aniq masalalar echishga qarab turli xil rejalashtirish usullaridan foydalaniladi, ya'ni analitik usul orqali ( iqtisodiy tahlil usuli); taqqoslash usuli; tenglashtirish usuli; statistik usul; iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli. Amaliyotda xalq xo'jaligini rejali va proporsional tarzda rivojlanshtirish qonunini harakatga keltirish mexanizmi rejalashtirishning ancha keng tarqalgan usullardan biri bo'lgan tenglashtirish va me'yorlash usullaridan foydalanishdir. Belgilangan tartibda tasdiqlangan rejalar direktiv ko'rinishda bo'ladi ya'ni ularning bajarilishi uchun tashkilot va korxonalar zimmasiga miqdor va sifat ko'rsatkichlarni yaxshilash vazifasi yuklatiladi. Loyiha tashkilotlarida loyiha-smeta hujjatlarini o'z muddatida topshirishga rioya qilish, ularning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, loyiha qidiruv ishlarini rejalashtirishni takomillashtirishga ko'proq ahamiyat berish kerakligini taqazo etadi.

## **§2. Rejalashtirishning vazifalari va ish rejalarini tizimi**

Rejalashtirish ishlab chiqarishni boshqarish tizimida markaziy bo'g'in sifatida loyiha-qidiruv ishlarini bajarishga qaratilgan loyiha tashkilotlari faoliyatida barcha qirralarni qamrab olgan. Natijada rejalashtirish oldiga aniq vazifalar qo'yiladi, ya'ni mavjud iqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida quyidagilarni ta'minlaydilar:

- belgilangan miqdor va hajmlarda loyiha-qidiruv hujjatlarini o'z vaqtida ishlab chiqish;
- loyiha-qidiruv ishlarini bajarishga mumkin qadar kamroq mehnat va moddiy harajatlarni sarflash;
- mehnat unumdarligini oshirish, yer tuzish bo'yicha ishlarni tashkil qilish va boshqarishni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

Asosan davlat yer tuzish tadbirlarining butun majmuasini o‘zida jamlagan (10-15 yil) yer tuzish bo‘yicha rejalar tuzilmaydi. Ammo yuqori boshqaruv organlarining qarorlarini hayotga tadbiq etish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar bo‘yicha uzoq muddatlarga mo‘ljallangan rejalar tuzish shu bilan bog‘liqki, ular uzoq muddatli yerlardan foydalanish masalasi bosh masalalardan biri hisoblanadigan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning uzoq muddatli rejalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Uzoq muddatli istiqbolli rejalarни asosan ish turlari bo‘yicha tuzish maqsadga muvofiqdir: qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun syomka qilish, tuproq va geobotanik qidiruvlar, tabiiy-qishloq xo‘jalikni mintaqalashtirish, Yerlardan foydalanishning bosh sxemasi va eroziyaga qarshi tadbirlar, yer kadastro va boshqalar. Yillar bo‘yicha ishlab chiqilgan rejalar ko‘rsatgichlari xo‘jaliklar asosida yoki maydonlarini va ish qiymatlarini yoritadilar. Bu ko‘rsatgichlarga viloyatda yer tuzish bo‘yicha ishlarning yillik rejalarini ishlab chiqishda ham amal qilinadi, negaki ular aniq belgilangan masalalarni o‘zida jamlaydi va rejali boshqaruvni aniq hamda tushunarli shaklda bo‘ladi.

Viloyat miqqosida yer tuzish bo‘yicha ishlarning yillik rejalarini Yer tuzish tashkiloti, viloyat yer resurslari va davlat kadastro boshqarmasi bilan hamkorlikda tuziladi. Ular asosida yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlarining yillik rejalarini ishlab chiqariladi. U rejalashtirilayotgan yilning har bir choragi bo‘yicha taqsimlanadi. Yillik rejani tuzish – bu barcha ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini, shuningdek loyiha tashkilotining ijtimoiy rivojlanishini yoritadigan dasturni ishlab chiqish demakdir. Yer tuzish bo‘yicha yillik ish rejalarini tuzishda ishlarning bajarilishi mavsumiyligi ham hisobga olinadi. Rejani tuzish chog‘ida ishlarning bajarilish joyi va muddati hisobga olinishi zarur. Negaki bu ishlab chiqarishni tashkil etish, balki ularni mablag‘lar bilan ta’minlashga ham bog‘liqdir. Bu esa o‘z navbatida, mehnatni to‘g‘ri taqsimlanishini hisobga olgan holda yer tuzish loyiha tashkilotining barcha muhandis texnik tarkibini yil davomida teng mikdorda ish bilan ta’minlanishini rejalashtirish chog‘ida diqqatga olish zaruratini tug‘diradi.

Ishlarning mavsumiyligini ayniqsa, ularni choraklar bo‘yicha taqsimlashda hisobga olish zarurdir. Loyiha tashkilotida yillik rejani amalga oshirishni tashkil etish uchun tezkor ishlab chiqarish rejalar tuziladi. Ushbu rejalar yordamida topshiriqlar aniq har bir bajaruvchiga etkaziladi.

### **§3. Loyiha tashkilotlarida rejalashtirish va iqtisodiy rag‘batlantirishning yangi tizimi**

Loyiha tashkilotlarida rejalashtirish va iqtisodiy manfaatdorlikning yangi tizimi boshqaruv tarkibini tashkil etishni takomillashtirish, loyiha tashkilotlarini malakali xodimlar bilan mustahkamlash, mehnatni va boshqaruvni ilmiy tashkil etishni tadbiq qilish, o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta’minlashni takomillashtirish, xodimlarni moddiy jihatdan rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish, loyiha-qidiruv, chizmachilik va boshqa ishlarda texnik vositalarini va yangicha usullarni qo‘llash, loyiha-smeta hujjatlarini belgilangan muddatlarda yuqori sifatlarda takomillashishini ta’minlash, loyihaning hayotga tadbiq qilinishida qishloq xo‘jalik korxonlariga zaruriy yordamlarni ko‘rsatish va mualliflik nazoratini kuchaytirish ko‘zda tutiladi. Loyiha tashkilotlarida yangi tizimni joriy etishning muhim vazifalaridan biri bu loyiha va qidiruv ishlarini tashkil etishda fan-texnika yutuqlaridan va ilg‘or tajribalardan ko‘prok foydalanishni nazarda tutadi. Bunda loyiha va boshqa iqtisodiy ishlanmalar va hisob-kitoblar yer maydonlaridan mumkin qadar oqilona va samarali foydalanish, dexqonchilik madaniyatni oshirish, har bir gektar yer maydonining saqlanishini ta’minlashi zaruriyatini keltirib chiqaradi. Yangi sharoitda yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlari bajaradigan ishlarning muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, loyiha qidiruv ishlari, hisob-kitoblar, tugallanmagan loyihalar va qidiruvlar bo‘yicha to‘la holda yoki uning bosqichlari bo‘yicha buyurtmachilar tomonidan amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Loyiha tashkilotining faoliyati rejalashtirilgan yilda tugallananadigan va topshiriladigan ishlarning hajmi bo‘yicha rejani hamda butun tashkilot bo‘yicha

loyiha-qidiruv ishlarining eng muhim turlarining nomenklaturasi bo‘yicha rejani bajarilishi bajaruvchilarga qarab baholanadi.

Loyihalar va boshqa texnik hujjatlarni sifatini yaxshilash uchun buyurtmachidan olingan mablag‘lar hisobiga yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlarida foydadan ajratmalar va boshqa manbalar yordamida iqtisodiy manfaatdorlik fondlari yaratiladi. Bunday fondlarga moddiy rag‘batlantirish, ijtimoiy madaniy tadbirlar o‘tkazish tashkilotni rivojlantirish fondlariga kiradi. Iqtisodiy manfaatdorlik fondlariga ajratiladigan mablag‘lar miqdorlari belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Masalan, loyihalar va boshqa texnik hujjatlarning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash hisobiga buyurtmachidan kelib tushadigan mablag‘lardan ajratmalar miqdorlari ma’lum bir chegara bilan chegaralanmagan, foydadan moddiy rag‘batlantirish fondiga ajratiladigan mablag‘lar miqdori yillik rejalashtirilgan ish xaqi fondining 12,0%idan, ijtimoiy-madaniy tadbirlar fondiga 4,0%dan oshmasligi kerak. Tashkilotni rivojlantirish fondiga ajratmalar asosiy vositalarni yillik uchun mo‘ljallanadigan amortizatsiya ajratmalari miqdorining 50,0%igacha bo‘lishi mumkin. Foydadan iqtisodiy manfaatdorlik fondlariga ajratmalar va amortizatsiya ajratmalaridan tashkilotni rivojlantirish fondiga ajratmalar me’yorlari doimo bir xildir va ular yer tuzish tashkilotini xo‘jalik yuritishning yangi tizimga o‘tkazish uchun qaror qabul qilgan organlar tomonidan ko‘p yillar uchun tasdiqlanadi.

Foydadan ajratmalar yillik moliyaviy rejada ko‘zda tutiladi va yil boshidan xar chorakda o‘sib boruvchi yig‘indi bilan amalga oshiriladi. Moddiy rag‘batlantirish, ijtimoiy-madaniy tadbirlar miqdorlari kasaba uyushmasi bilan kelishiladi. Rejalashtirish va iqtisodiy manfaatdorlikning yangi tizimga o‘tgan yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlarining ishidagi yutuq ko‘p jihatdan uni ushbu fondlarni vujudga kelishining aniq manbalariga bog‘liqdir. Uslubiy ko‘rsatmalarda e’tirof etilishicha, yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlarda moddiy rag‘batlantirish fondlari bajarilgan ishlarning smeta qiymatlarini pasaytirish, qo‘srimcha mahsulot etishtirish yoki loyihaning o‘zlashtirish hisobiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari

tannarxining pasayishi uchun fan va texnikaning eng yangi va zamonaviyalarini hisobga olgan holda a’lo sifatli loyihalar va boshqa texnik hujjatlar uchun loyihalarni hayotga tadbiq etishda qishloq xo‘jalik korxonalariga yordam ko‘rsatilgani uchun buyurtmachilardan ular oladigan mablag‘lar hisobiga yaratiladi.

Rejalashtirish va iqtisodiy manfaatdorlikning yangi tizimiga o‘tkazilgan yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlarida loyiha qidiruv ishlarini a’lo darajada bajarganliklari uchun to‘lanadigan qo‘s Shimcha mablag‘lar hisobiga iqtisodiy manfaatdorlik fondini tashkil etish ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishni a’lo sifatda bajarganlik uchun to‘lanadigan qo‘s Shimcha xaqlarning miqdori ishning umumiy qiymatidan 20,0% gacha bo‘lishi mumkin. U odatda loyiha tashkilotidan vakil ishtirokida buyurtmachi tomonidan aniqlanadi. Loyerha tashkilotiga qo‘s Shimcha haq, a’lo sifati uchun, ham buyutrmachi tomonidan to‘lov hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.


## **5-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YER RESURSLARI, GEODEZIYA, KARTOGRAFIYA VA DAVLAT KADASTRI DAVLAT QO‘MITASINING TARKIBI VA VAZIFALARI**

### **§1. Qo‘mitaning tarkibi, vazifalari va faoliyati**

Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzishni va yerlar monitoringini tashkil qilish, tuproq unumdoorligini saqlash, oshirish va qayta tiklash bo‘yicha yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini taminlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida"gi 2004 yil 15 oktyabrdagi PF – 3502-sonli Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 19 oktyabr 2004 yildagi 483-sonli qarori bilan Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bosh boshqarmasini Yer resurslari Davlat qo‘mitasi tarkibiga kiritish borasida O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya

va davlat kadastro Davlat qo‘mitasi tashkil qilindi. (Keyingi o‘rinlarda, "Yergeodezkadastr" Davlat qo‘mitasi deb ataladi). "Yergeodezkadastr" Davlat qo‘mitasi davlat boshqaruv organi hisoblanadi va o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot bYeradi. Qo‘mita o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, o‘zining nizomiga amal qiladi. Shu yuzasidan "Yergeodezkadastr" Davlat qo‘mitasining boshqaruv apparati tuzilmasi va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati keltiriladi.

### **O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro Davlat qo‘mitasi boshqaruv apparatining tuzilmasi**



### **"Yergeodezkadastr" davlat qo‘mitasining tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar ro‘yxati**

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Yer resurslari va davlat kadastro boshqarmalari

2. Tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastro bo‘linmalari.
3. Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi.
4. Markaziy yerogeodeziya korxonasi.
5. Samarqand yerogeodeziya korxonasi.
6. "Kartografiya" davlat ilmiy ishlab chiqarish korxonasi.
7. Geodeziya va Kartografiya milliy markazi.
8. Tuproqshunoslik va agrokimyo davlat ilmiy - tadqiqot instituti.
9. O‘zbek davlat yer tuzish ilmiy - loyihalash instituti

"O‘zdavyerloyiha".

"Yergeodezkadastr" Davlat qo‘mitasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzishni va yerlar monitoringini tartibga solish, yer tuzish va yerlar monitoringini tashkil qilish, tuproq unumdarligini saqlash, oshirish va qayta tiklash bo‘yicha yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta’minlash;
- tuproq unumdarligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- yerlardan oqilona foydalaniishi va ularning muhofaza qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- geodeziya va kartografiya faoliyatini boshqarish;
- davlat geodeziya nazoratini tashkil etish;
- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat yer kadastrini, davlat kartografiya-geodeziya kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini, shuningdek davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish.

Qo‘mita o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bir qator funksiyalarni boshqarmalari orqali amalga oshiradi.

Geodeziya va kartografiya bosh boshqarmasi o‘zining mazkur "Nizomi"ga amal qilib faoliyat ko‘rsatadi. Bosh boshqarma tarkibiga Geodeziya bo‘limi, Kartografiya bo‘limi, Davlat chegaralarini bo‘lish va belgilash bo‘limlari kiradi. Bosh boshqarma boshlig‘i bevosita qo‘mita raisining birinchi o‘ribbosari hisoblanadi.

Bosh boshqarmaning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- davlat geodeziya tarmog‘ini yaratadi, rivojlantiradi va ish holatida saqlaydi;
- davlat maqsadidagi hamda maxsus maqsaddagi grafik, raqamli, fotosuratli va boshqa shakllardagi topografiya xaritalari va planlarini yaratadi, yangilaydi va nashr kiladi;
- yerni masofadan zondlashni va geodinamik tadqiqotlarni amalgalashiradi;
- umumjug‘rofiy, siyosiy-ma’muriy, ilmiy-ma’lumotnomalar va boshqa mavzuli xaritalarni hamda tarmoqlararo maqsaddagi atlasmalarni, o‘quv kartografiya qo‘llanmalarini tuzadi va nashr qiladi;
- davlat maqsadidagi va maxsus maqsaddagi jug‘rofiy axborot tizimlarini yaratadi va yuritadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi chiziqlarini delimitatsiya, demarkatsiya qilishni va tekshirishni geodeziya, kartografiya va gidrografiya jihatidan taminlashni tashkil qiladi;
- geodeziya, kartografiya va kadastr ishlarini metrologiya jihatidan ta’minlashni tashkil qiladi;
- geodeziya va kartografiya faoliyatini muvofiqlashtiradi va tartibga soladi;
- davlat geodeziya nazoratini amalgalashiradi;
- davlat kartografiya-geodeziya fondini shakllantiradi va yuritadi;
- jug‘rofiy nomlar standartlashtirilishini, hisobga olinishini va ularni qo‘llashning tartibga solinishini ta’minlaydi;

- ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va tajriba-texnologiya ishlarini bajaradi, normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqadi, geodeziya va kartografiya mavzu-uskunalarini ishlab chiqarishni tashkil qiladi;
- iqtisodiyot tarmoqlarini, fan, mudofaa va aholini geodeziya, kartografiya axborotlari bilan ta'minlaydi;
- geodeziya va kartografiya faoliyatini litsenziyalanishini tashkil qiladi.

### **Davlat kadastrı boshqarmasi.**

Boshqarma o‘zining mazkur "Nizomi"ga amal qilib faoliyat ko‘rsatadi. Boshqarma tarkibiga Davlat kadastrlari yagona tizimi bo‘limi, Davlat va yer kadastrini bo‘limi hamda Bino va inshootlar davlat kadastrini bo‘limlari kiradi. Boshqarma bevosita qo‘mita raisining davlat kadastrini masalalari bo‘yicha o‘rinbosari hisoblanadi.

Boshqarmaning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritiladigan tarmoq, kadastr axborotlarini yig‘ish, tahlil qilish, turkumlash, saqlash va yangilashni amalgalashadi;
- davlat Yer kadastrini yuritadi;
- binolar va inshootlarning davlat kadastrini yuritadi;
- davlat kartografiya-geodeziya kadastrini yuritadi;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-texnologiya ishlarini bajaradi, normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- viloyatlar, tumanlar va aholi punktlarining ma’muriy chegaralarini belgilash (aniqlash) ishlarini tashkil qiladi va amalgalashadi;
- foydalanuvchilarni kadastr axborotlari bilan ta’minlaydi;
- ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni va ko‘chmas mulkka doir bitimlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalgalashadi;

- ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar, ularning bir huquq egasidan ikkinchisiga o‘tishi to‘g‘risidagi, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni chegaralash va ko‘chmas mulkka doir boshqa bitimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bankini tashkil qiladi.

### **Yerdan foydalanish va yer tuzish boshqarmasi.**

Boshqarma o‘zining mazkur "Nizomi"ga amal qilib faoliyat ko‘rsatadi. Boshqarma tarkibiga yer munosabatlarini tartibga solish va yer tuzish bo‘limi, loyihalashdan oldingi, loyihalash ishlari va ekspertiza bo‘limi kiradi. Boshqarma bevosita nazorat qilish va yer tuzish masalalari bo‘yicha qo‘mita raisining o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

Boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yer tuzish, yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasida amalga oshiriladigan ishlarni tashkil etish;
- yer tuzish ishlarida yangi texnologiya tadbirlarini yuritish va yer munosabatlari sohasidagi ishlarni muvofiqlashtirish;
- yer resurslari sohasida avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishlarni yuritish va yaratish, shuningdek plan-kartografik materiallarini chop etish, tayyorlash va yangilash ishlarni muvofiqlashtirish;
- respublikaning yer to‘g‘risidagi muhim bo‘lgan ma’lumotlarini saqlash, tahlil qilish, avtomatlashtirilgan yer axborot tizimi jarayonlari yuritishida, yig‘ishda va tuzishda qatnashish;
- xar yilgi O‘zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati va ulardan foydalanish bo‘yicha milliy hisobotini tuzishda umumiylah rahbarlikni amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasi yer fondini toifalar, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va mulkdorlar o‘rtasida taqsimlash.

## **Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni nazorat qilish boshqarmasi.**

Boshqarma o‘zining mazkur "Nizomi"ga amal qilib faoliyat ko‘rsatadi. Boshqarma tarkibiga yer monitoringi va yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni nazorat qilish bo‘limlari kiradi. Boshqarma bevosita yerdan foydalanish uni muhofaza qilishni nazorat qilish va yer tuzish masalalari bo‘yicha qo‘mita raisining o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

Boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yerlarni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks tadbirlar bajarilishi ustidan nazorat qilish.

Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) tuproq unumdorligini, shuningdek yerlarning boshqa xossalari qayta tiklash va oshirish;
- b) yerlarni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suv bosishidan, botqoqlanishidan, qayta sho‘rlanishidan, qurib qolishidan, ishlab chiqarish chiqindilari, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishidan, emirilishi boshqa jarayonlaridan muhofaza qilish;
- v) qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini butalar va mayda dov-daraxtlar, begona o‘tlar o‘sishidan hamda yerlarning texnik holati yomonlashishi va boshqa jarayonlaridan muhofaza qilish;
- g) agar boshqa usullar bilan tuproq unumdorligini tiklash mumkin bo‘lmasa, unumsizlangan qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiya qilish;
- d) buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, ularning unumdorligini va yerlarniig boshqa foydali xossalari oshirish;
- e) Yer buzilishi bilan bog‘lik; ishlarni bajarishda tuproqning unumdor qatlamlarini olish, ulardan foydalanish va ularni saqlash;
- j) suvni muhofaza qilish zonalari va qirg‘oqbo‘yi polosalari uchun yer ajratilishi hamda ulardan maqsadli foydalanishini nazorat qilish;

k) foydali konlarni qazish, qurilish ishlari va boshqa ishlar uchun berilgan qishloq xo‘jaligi yerkari, o‘rmon yerkari va boshqa yerkarning ushbu ishlar tugallangandan keyin belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirilishi ustidan nazorat qilish;

l) qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini tomonidan:

- tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga muvofik ilmiy asoslangan almashlab ekishlarni, dehqonchilikning eng samarali va oqilona tizimini joriy etish;
- haydaladigan yer maydonlari saqlab qolinishini ta’minlash;
- meliorativ jihatdan noyob bo‘lgan sug‘oriladigan yerkarni kompleks rekonstruksiya qilish, pichanzorlar va yaylovlarga suv chiqarish va ularni yaxshilash tadbirlari bajarilishini nazorat qilish;

m) davlat ehtiyojlari uchun qishloq xujaligi mahsulotlari etishtirishga mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligi ekin maydonlariiii o‘lchash.

“Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasi o‘ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek o‘zining hududiy bo‘linmalari, boshqa idoraviy, mansub organlar va muassasalar orqali hal qiladi. O‘zbekistonning hududiy rivojlantirish, yagona kompleks strategiyasini shakllantirish Davlat dasturi doirasida “Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasi respublikaning har bir mintaqasida hududlar rivojlanishini tahlil qilish va bashoratlash uchun kartografiya axborot resurslarini shakllantirish imkonini beruvchi geografik axborot tizimini bosqichma-bosqich joriy etadi.

## **§2. Yer tuzish xizmatida mehnatni tashkil**

### **qilish shakllari va uslublari**

“Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan rais boshchilik qiladi. Qo‘mita raisi ayni bir vaqtda yerkardan foydalanishni va ularni muhofaza qilinishini nazorat qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining bosh davlat inspektori hisoblanadi. Raisning uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafari

birinchi o‘rinbosari hisoblanadi. Raisning birinchi o‘rinbosari ayni bir vaqtda Geodeziya va kartografiya bosh boshqarmasining boshlig‘i hisoblanadi. Raisning o‘rinbosarlari ham ayni paytda bosh davlat inspektorining o‘rinbosarlari hisoblanadilar. Qo‘mita raisi qo‘mita faoliyatiga rahbarlik qiladi, o‘z vakolatlari doirasida buyruqlar chiqaradi, yo‘riqnomalarni, qoidalarni va boshqa normativ hujjatlarni tasdiqlaydi, ko‘rsatmalar beradi va ularning bajarilishi ustidan nazoratni olib boradi. Bundan tashqari, xodimlarning belgilangan soni doirasida qo‘mitaning apparati, unga qarashli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yer resurslari va davlat kadastro boshqarmasi, viloyat boshqarmalari, tuman xizmatlari shtat jadvalini tasdiqlaydi. Markaziy apparat hodimlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi.

Qo‘mita raisi o‘z o‘rinbosarlarining vakolatlarini belgilaydi, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi. Qo‘mitaning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni, idoraviy mansub boshqa organlarning hamda qo‘mita tizimiga kiruvchi muassasalarning “Nizom” larini belgilangan tartibda tasdiqlaydi.

Qo‘mita raisi qo‘mitani boshqaradi, xodimlarning operativ ishlarni bajarishini tashkil qiladi va shu bilan birga, jamoada ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Qo‘mita xodimlarining intizomi hamda mehnat qilishlari va dam olishlari asosan ichki qoidalari bilan tartibga solinadi.

Boshqarish va tashkil qilishning bosh bo‘g‘ini qo‘mita boshqarmalari va bo‘linmalarining yillik bajaradigan ishlarni rejalashtirish hisoblanadi. Rejada malum davrda bajariladigan ishlar hamda uni bajarish yo‘llari ko‘rsatiladi. Qo‘mita o‘z nazorat funksiyasini ikki xil shaklda olib boradi, yani huquqiy meyirlarni qo‘llash va o‘rnatish.

Qo‘mita tomonidan seminarlar o‘tkazish, statistik malumotlar to‘plash, instrukstajlar o‘tkazish, bo‘limlarga amaliy yordam berish kabi ishlar olib boriladi.

Qo‘mita o‘z apparati doirasida ishlarni tashkil etish va uni amalga oshirishda iqtisodiy hamda huquqiy usullarni qo‘llaydi. Huquqiy usul asosan ikkiga, yani ishontirish va majburlashga bo‘linadi, huquqiy usulni qo‘llash yerlardan

foydalanimish va muhofaza qilish bo'yicha jamoa inspektorlar to'g'risidagi "Nizom"ga ko'ra amalga oshiriladi.

Qo'mita loyiha tashkilotlari bilan birgalikda yer tuzish, yer kadastro, yer monitoringi ishlarini bajarilish texnologiyalari bo'yicha vaqt meyorlarini va boshqa ko'rsatmaviy hujjatlar, yo'riqnomalar ishlab chiqadilar.

Yer tuzish xizmatidagi mutaxassislarning malakalarini oshirish borasida tadbirlar olib boradilar.

## **6-BOB. VILOYAT, SHAHAR VA TUMAN YER TUZISH XIZMATLARI**

### **§1. Viloyat va Toshkent shahar Yer resurslari va davlat kadastro boshqarmasi tarkibi va vazifalari.**

Viloyat va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastro boshqarmasi hududiy davlat boshqaruvi organi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 19 oktyabrdagi 483-sonli qarorining 2 – bandiga binoan, viloyat Yer resusrlari va davlat kadastro boshqarmalari tegishli ravishda viloyat yer resurslari boshqarmalari, yer, binolar va inshootlar davlat kadastro bosh boshqarmalari, texnik xatlovdan o'tkazish kadastr byurolari negizida tashkil etildi. Toshkent shahar Yer resurslari va davlat kadastro boshqarmasi Toshkent shahar Yer munosabatlarini tartibga solish va ko'chmas mulk kadastro bosh boshqarmasi hamda yakka tartibdagi uy-joylarni hisobga olish va nazorat qilish boshqarmasi negizida tashkil etildi.

Viloyat va Toshkent shahar Yer resurslari va davlat kadastro boshqaramalari «Yergeodezkadastr» Davlat qo'mitasiga bo'ysunadilar va tegishli mahalliy davlat boshqaruvi organlariga hisobot bYeradilar. Viloyat va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastro boshqarmalari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Rezpublikasi Prezidentining farmon va farmoyishlariga, Vazirlar Maxkamasining qaror va farmoyishlariga, «Yergeodezkadastr» Davlat qo'mitasining, viloyat va shahar hokimligining

buyruqlariga, farmoyishlariga, qarorlariga va mazkur qo‘mita raisi tomonidan tasdiqlangan «Nizom»ga amal qiladilar. Shu yuzasidan Boshqarmaning boshqaruv apparati tuzilmasi hamda uning tarkibiga kuruvchi korxona va tashkilotlar ro‘yxati keltiriladi. (1-chizma)



### **1-chizma. Boshqarmaning tarkibi**

Viloyat hamda Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastri boshqarmalarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzishni va yer monitoringini tashkil qilish, tuproq unumdarligini saqlash, oshirish va qayta tiklash bo‘yicha o‘z hududlarida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- hududda tuproq unumdarligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- yerdan oqilona foydalanishi va uning muhofaza qilinishi ustidan davlat nazoratini o‘z hududida amalga oshirish;
- geodeziya va kartografiya faoliyatini boshqarish, davlat geodeziya nazoratini tashkil etishda ishtirok etish;
- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat yer kadastrini, davlat kartografiya-geodeziya kadastrini bino va inshootlar davlat kadastrini, shuningdek davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish.

Boshqarmaning asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda xar bir sho‘balar o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun o‘z bo‘limida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradilar:

#### **Yerdan foydalanish va yer tuzish sho‘basi:**

- yerga oid munosabatlarni tartibga solish tizimini takomillashtirishga, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlash;
- davlat boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning yerdan foydalanish, tuproq unumdarligini saqlash, oshirishni ta’minlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- yer tuzish, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni, yer resurslarini hisobga olish va baholashni takomillashtirishga yo‘naltirilgan chora tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- o‘z hududi bo‘yicha yer resurslarining holati to‘g‘risida xar yilgi milliy hisobotni tuzish.

#### **Davlat kadastro sho‘basi:**

- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritiladigan tarmoq kadastr axborotlarini yig‘ish, tahlil qilish, turkumlash, saqlash va yangilashni amalga oshirish;
- davlat yer kadastrini yuritish;
- bino va inshootlar kadastrini yuritish;
- davlat kartografiya-geodeziya va kadastrini yuritish;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba texnologiya ishlarini bajarish, normativ texnik hujjatlarni ishlab chiqarish va tasdiqlash;
- viloyat, tuman (shahar) va aholi punktlarining ma’muriy chegaralarini belgilash (aniqlash) ishlarini tashkil qilish va amalga oshirish.

Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni nazorat qilish sho‘basi:

- tuman (shahar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri xizmatlarining ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatlarini tasdiqlangan rejaga muvofiq, zarur xollarda esa rejadan tashqari tekshirish;
- tuman (shahar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri xizmatlarining mutaxassis-xodimlarini tasdiqlangan reja-grafikka muvofiq davriy ravishda attestatsiyadan o‘tkazish;
- tuman (shahar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri xizmatlari tamonidan tayyorlangan kadastr va yer tuzish faoliyatiga oid hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish.

## **§2. Boshqarmada mehnatni tashkil qilish shakllari va uslublari**

Viloyat va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastri boshqarmalarining boshliqlari Toshkent shahar va viloyat hokimlari bilan kelishilgan holda «Yergeodezkadastr» Davlat qo‘mitasi raisining buyrug‘i bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Boshqarma boshliqlari ayni bir vaqtida erlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni nazorat qilish bo‘yicha o‘z hududlarida davlat inspektorlari hisoblanadilar. Boshqarma boshliqlari boshqarma faoliyatiga umumiy rahbarlikni

amalga oshiradilar. O‘z vakolatlari doirasida buyruqlar chiqaradilar, yo‘riqnomalar va ko‘rsatmalar beradilar. shuningdek, ichki tartib-qoidalarni tasdiqlaydilar.

Boshqarma boshliqlari sho“ba boshliqlarining vakolatlarini belgilaydilar, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydilar. Jamoada ijtimoiy- siyosiy va tarbiyaviy ishlarni olib boradilar.

Boshqarish va tashkil qilishning bosh bo‘yrug‘ini yillik ishlarni rejalashtirish hisoblanadi. Rejada ma’lum davrda bajariladigan ishlarni hamda uni bajarish yo‘llari ko‘rsatiladi. Boshqarma o‘z nazorat funksiyasini ikki xil shaklda olib boradi, ya’ni huquqiy me’yorlarni qo‘llash va o‘rnatish. Boshqarma o‘z apparati doirasida ishlarni tashkil etish va uni amalga oshirishda iktisodiy hamda huquqiy usullarni qo‘llaydi. Huquqiy usullarni qo‘llash yerdan foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha jamoatchi inspektorlar to‘g‘risidagi «Nizom»ga ko‘ra amalga oshiriladi.

Boshqarma xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalarni beradi va buyruqlar chiqarish, ularning bajarilishi ustidan nazorat qilishni tashkil etadi.

### **§3. Tuman (shahar) Yer resurslari va davlat kadastro bo‘limlarining tarkibi va vazifalari**

Tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastro bo‘limlari hududiy davlat boshqaruvi organi hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 19 oktyabrdagi 483 – sonli Qarorining 2-bandiga binoan, tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastro bo‘limlariga tegishli ravishda tuman (shahar) yer resurslari xizmatlari, ko‘chmas mulk kadastro xizmatlari va texnik xatlovdan o‘tkazish kadastr byurolari negizida tashkil etilgan.

Bo‘limlar O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro Davlat qo‘mitasiga hamda viloyat yer resurslari va davlat kadastro boshqarmalariga buysunadilar va tuman, (shahar) hokimligiga hisobot bYeradilar. Bo‘limlar o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va farmoyishlariga,

«Yergeodezkadastr» Davlat qo‘mitasining buyruq va farmoyishlariga, viloyat va shahar hokimligining qaror va farmoyishlariga, viloyat boshqarma qaror va buyruqlariga, tuman (shahar) hokimliklarining qaror va farmoyishlariga, shuningdek, mazkur «Nizom»ga amal qiladilar. Shu yuzasidan bo‘limning boshqaruv apparati tuzilmasi keltiriladi.

## BOSHLIQ

Yerdan foydalanish, yer tuzish va davlat  
kadastri bo'yicha mos mutaxassis

### **2-chizma. Bo‘limning tarkibi**

Tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- yer resurslaridan oqilona foydalanish va muxofaza qilish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzishni va yerlar monitoringini tashkil qilish, tuproq unumdarligini saqlash, oshirish va qayta tiklash bo‘yicha yagona davlat siyosatini o‘z hududlarida amalga oshirilishini ta’minlash;
- tuproq unumdarligini oshirish, yerdan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir davlat dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish va ularning amalga oshrilishini ta’minlash;
- yerdan oqilona foydalanish va ularning muhofaza qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- vakolatli davlat boshqaruvi organlari viloyat bo‘linmalarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat yer kadastirini hamda bino va inshootlarning davlat kadastrini yuritish;

- Davlat kadastrlari yagona tizimiga (DKYAT) kiritiladigan ma'lumotlarni belgilangan tartibda tayyorlash va taqdim etish.

Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalariga muvofiq tumanlar hududida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradilar:

- yuridik va jismoniy shaxslarning yerlardan foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash, oshirishni ta'minlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- yer tuzish, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni, yer resurslarini hisobga olish va baholashni takomillashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqadi va amalga oshirish;

- yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish, yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruv organlarining bulinmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yer to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioxat etilishi ustidan davlat nazoratini tashkil qiladi va amalga oshirish, yo'l quyilgan qonun buzilishlarini bartaraf etish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rinishini ta'minlash;

- yer fondining holatini kuzatish, o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, salbiy jarayoonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish maqsadida yerlar monitoringini amalga oshirish;

- yer resurslarining holati to'g'risida xar yilgi hisobotni belgilangan tartibda tuzish va taqdim etish;

- ma'muriy hududlar chegaralarini aniqlash va belgilash ishlarini tashkil qilishi;

- foydalanuvchilarni belgilangan tartibda kadastr ma'lumotlari bilan ta'minlaydi.

#### **§4. Tuman (shahar) Yer resurslari va davlat kadastro bo'lim boshlig'ining ishini rejorashtirish va tashkil etish**

Bo'lim boshlig'i tuman hokimligning tavsiyanomasiga asosan, boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan

bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi. Bo‘lim boshlig‘i ayni bir vaqtda tumanda yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilinishini nazorat qilish bo‘yicha davlat inspektori hisoblanadi. Bo‘limga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi. Bo‘lim xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar beradi hamda ularning bajarilishi ustidan nazoratni tashkil qiladi.

Bo‘limning ishlari o‘z mazmuni, harakteri, ahamiyati, vaqtি va bajarish joyi bo‘yicha xilma-xildir. Barcha bajariladigan ishlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1-guruh. Doimiy harakatga ega bo‘lgan va yuqori tashkilotlarga hisobot topshirish bilan bog‘liq ishlar.

2-guruh. Doimiy harakatga ega bo‘lgan, bajarilish muddatlari, mazmuni bo‘yicha bo‘lim tomonidan o‘rnatilgan ishlar.

3-guruh. Epizodik harakterga ega bo‘lgan va yil davomida yuqori tashkilotlar idoralarning qarorlari va buyruqlarining bajarilishi bo‘yicha ishlar.

4-guruh. Tuman fuqarolari tomonidan tushgan arizalar, talabnomalar, yer to‘g‘risidagi konun hujjatlarining buzilishi hamda fukarolarning faoliyati bilan bog‘liq ishlar.

Tuman yer resurslari va davlat kadastro bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi konun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. (Tuman Yer tuzish ishlarini bajarishda yuqoridagi guruhlarni hisobga olib, yillik, kvartallar bo‘yicha va tezkor rejalar tuziladi hamda yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlanadi). Quyidagi shaklda tuman yer tuzish xizmati boshlig‘ining yillik ish rejasи keltiriladi.

«TASDIQLAYMAN»

\_\_\_\_\_ viloyati Yer resurslari  
va davlat kadastri boshqarmasi  
boshlig‘i

F.I.SH.

«\_\_\_\_\_» 20 \_\_\_\_\_ yil

\_\_\_\_\_ viloyati Yer resurslari va Davlat kadastri boshqarmasining  
\_\_\_\_\_ tumani bo‘limining yillik

ISH REJASI

No	Ish turlari nomi	Muddati
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari, viloyat hokimining qarorlari asosida tuman hududidagi yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilar va ijara chilar tarkibida ro‘y beradigan o‘zgarishlar bo‘yicha yer kadastri hujjatlarini tayyorlash	YAnvar, Fevral, Mart
2	Tuman qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan ekilgan ekin maydonlari monitoringini o‘tkazish	Aprel, May
3	Tuman qishloq xo‘jaligi korxonalaridan 4-qx hisobotini qabul qilish	May, Iyun
4	Tuman xo‘jaliklarida 4-qx hisoboti bo‘yicha, ekilgan ekin maydonlarini hisobotga nisbatan tahlil qilish	Iyun, Avgust

5	Tuman qishloq xo‘jaligi korxonalari foydalanish yer turlari maydonlarining o‘zgarishi bo‘yicha aniqliklar kiritish	Sentyabr
6	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan xo‘jaliklarda boshlang‘ich toifadagi yer naqdililagini tuzish bo‘yicha shaklni tayyorlash	Oktyabr, Noyabr
7	Tuman bo‘yicha Yerdan foydalanuvchilar, yer egalari, ijarachilar va mulkdorlar, yerlardan foydalanuvchilarga taqsimlangan yer resurslari axvoli to‘g‘risida yilning 1 yanvar holatiga tuman bo‘yicha hisobotini tuzish	Dekabr
8	Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish Respublika kengashi tasdig‘idan o‘tgan rejali tekshiruvlarni o‘z vaqtida o‘tkazish	Tasdiqdan o‘tgan sanalarda
9	Yer ajratish to‘g‘risida tushgan xat va arizalarni ko‘rib chiqish	Yil davomida
10	Yerdan foydalanish va ularning muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini yuritish	Yil davomida
11	Tumandagi yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish	Yil davomida
12	Yerdan foydalanish nazorati bo‘yicha hisobotini boshqarmaga xar chorakda topshirish	Chorakning oxirgi oyining 20-kuni

Tuman yer resurslari va Davlat

kadastri bo‘limi boshlig‘i

\_\_\_\_\_ (F.I.SH)

## **7 – BOB. YER TUZISH BO‘YICHA LOYIHA TASHKILOTLARINING TARKIBI VA VAZIFALARI**

### **§1. Yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotining tarkibi**


O‘zbek davlat yer tuzish ilmiy-loyihalash instituti “O‘zdavyerloyiha” (bundan avval Respublika yer tuzish loyihalash instituti “O‘zgeprozem”- deb atalgan) 1961 yilda tashkil topgan. Mazkur institut Qishloq xo‘jaligi Vazirligining yer tuzish ekspeditsiyasi hamda tuproqlarni muhofaza qilish va yaxshilash, yerdan foydalanish hamda Yer fondlarini davlat hisobiga olish boshqarmasining partiyalar negizida tashkil etildi, institut respublikada qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish va yerlardan foydalanishni tashkillashtirish masalalarini qishloq qurilish masalalari bilan uzviy bog‘liqlikda hal etishga layoqatli bo‘lgan dastlabki hamda yagona tashkilot hisoblangan. Institut tarkibiga 1961 yilda Respublika tuproq ekspeditsiyasi va kartografiya fabrikasi o‘tkazildi. Institut tashkil etilishi bilan yer tuzish loyihalash ishlari majmuali suratda amalga oshirildi va loyiha-qidiruv ishlarining boshqa turlariga xos bo‘lgan bosqichma-bosqichlik tamoyiliga ega bo‘ldi. Barcha yer tuzish ishlanmalari chuqur iqtisodiy asoslanuvga ega bo‘ldi, yer tuzishga yondosh bo‘lgan irrigatsiya, agroo‘rmon melioratsiyasi, yeroziyaga qarshi qurilish va boshqalar kabi muhandislik sohalarini o‘zida mujassamlashtiri. 1993 yilga kelib, qishloq xo‘jaligi vazirligining buyrug‘iga muvofiq “Uzgeprozem” loyiha instituti O‘zbek davlat yer tuzish ilmiy-loyihalash “O‘zdavyerloyiha” deya qayta nomlandi va butun ittifoq qishloq xo‘jalik aerofoto qidiruvlar institutining filiali uning tarkibiga xo‘jalik hisobidagi aerogeodezik qidiruvlar bo‘limi sifatida o‘tkazildi. O‘sha vaqtidan e’tiboran institutning ish buyurtmalari nomenklaturasi va tuzilmasi o‘zgardi, viloyatlardagi majmuali loyihalash “bo‘limlari”, “bo‘linmalar” qilib qayta tashkil etildi. 1998 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq yer resurslari davlat qo‘mitasi tashkil etildi va institut qo‘mita tarkibiga kiritildi. 2004 yilga kelib “O‘zdavyerloyiha” instituti yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi tarkibiga kirdi. Institutda loyiha-qidiruv hujjatlarini ishlab chiqish bilan bir qatorda, mavzuli


yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar va uslubiyotlar ishlab chiqish ishlari faol olib borilmoqda.

Hozirgi kunda institut tarkibida viloyatlar bo‘yicha hududiy 4 ta filial, 8 ta bo‘linma va markazlashgan ishlab chiqarish bo‘linmalari, maxsus "Geoinformkadastr" Davlat unitar korxonasi hamda "Toshvilyerloyiha" sho“ba korxonasi quyidagi shaklda faoliyat ko‘rsatmoqda.

Institut loyiha oldi, loyihalash ishlari, yer monitoringi va plan- kartografik materiallarni tayyorlash va nashr etish hamda boshqa izlanishlarning bosh loyihalovchisi bo‘lib hisoblanadi. Institut boshqaruvi Bosh direktori tomonidan amalga oshiriladi. Bosh direktor boshqaruv bo‘yicha o‘z vakolatlarining bir qismini institut kengashi bilan hal qiladi. Institut to‘liq xo‘jalik hisobi va o‘z-o‘zini ta’minlash tamoyillari asosida faoliyat ko‘rsatadi.

1-shaklda “O‘zdavyerloyiha” institutining tarkibiy tuzilmasi keltiriladi.





### **1-shakl “O‘zdavYerloyiha” institutining tarkibiy tuzilmasi**

- “Geoinformkadastr” davlat unitar korxonasi; rejali –kartografik asosli zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha tayyorlash ishlari bilan shug‘ullanadi;
- viloyatlar majmuali loyihalash filiallari va bo‘linmalari; qishloq xo‘jalik korxonalarining hududlarini tashkil qilish, xo‘jaliklararo yer tuzish loyihalarini ishlab chiqadilar, yerlarni inventarizatsiyalash hamda boshqa yer tuzish ishlarini amalga oshiradilar;
- markazlashtirilgan ishlab chiqarish bilimlari; prognoz ishlanmalarni, agroxo‘jalik va geobotanik tekshiruvlarni amalga oshiradilar buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish va yerlarni yeroziyadan himoyalash loyihalarini tuzadilar, yirik muhandislik inshootlari uchun yerlar ajratish va sohaga oid boshqa loyiha-qidiruv ishlarini bajaradilar.

Institut o‘zining ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatida «Davlat ishlab chiqarish korxonalari to‘g‘risida»gi Nizomiga, boshqa qonunlarga, qonunchilik hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi "Yergeodezkadastr" Davlat ko‘mitasining buyruq va farmoyishlariga hamda o‘zining Nizomiga amal

qiladi. Institut mustaqil ravishda o‘z tuzilmasini, boshqaruv shakli, shtat tizimi, miqdori va boshqa harakatlar bo‘yicha o‘z faoliyatini rejalashtiradi.

## **§2. Loyiha tashkilotining viloyat bo‘limlari tarkibi**

Viloyatlarda joylashgan yer tuzish bo‘yicha kompleks loyihalash filiallari va bo‘limlari yer tuzish, yer monitoringi va davlat yer kadastro sohalaridagi loyiha oldi, loyiha ishlari, qidiruv, tekshiruv ishlarining bajaruvchisi hisoblanadi.

1963 yildan boshlab birin - ketin viloyatlarda ham yer tuzish ekspeditsiyalari negizi bo‘yicha kompleks loyihalash filial va bo‘linmalar tashkil etildi.

Filial va bo‘linmalarning tarkibiy tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- Boshqaruv xodimlari
- Texnik xodimlar
- Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar
- Bo‘linma va ishlab chiqarish guruhlari va ularning tarkibiga kiruvchi muhandis-texnik xodimlar.

Filial va bo‘linmalar boshqaruvi filial direktori va bo‘lim boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi. Direktor va bo‘lim boshliqlari boshqaruv bo‘yicha o‘z vakolatlarining bir qismini filial va bo‘lim kengashiga berishi mumkin.

Filial va bo‘limlar to‘liq xo‘jalik hisobi va o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta’minlash hisobida faoliyat ko‘rsatmoqdalar. U O‘zining ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariga, "O‘zdavyerloyiha" institutining buyruqlari va farmoyishlariga hamda o‘zining Nizomiga amal qiladilar.

## **§3. Loyiha tashkiloti vazifalari**

Loyiha tashkilotining asosiy vazifasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining yerlardan oqilona (maqsadga muvofiq) va samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish, yer kadastro sohasidagi chora-tadbirlar kompleksiga

kiruvchi ilmiy loyihalash, tekshiruv va qidiruv ishlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Loyiha tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalardan kelib chiqib, quyidagi asosiy ish turlarini bajaradilar:

- yer resurslaridan istiqbolli foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha bashorat (prognoz)lar, kompleks dasturlar, texnik-iqtisodiy asoslar, sxema va takliflarni ishlab chiqish, viloyat va tumanlarda yer tuzish sxemalarini tayyorlash, muhofaza qilinayotgan tabiiy hududlar chegaralarini belgilash;
- xujaliklararo yer tuzish ishlari, shu hisobda: yangi yer uchastkalarini tashkil qilish hamda mavjud yer uchastkalarini tartibga solish loyihalarini tuzish; yer uchastkalarini chegalarini belgilash aniqlash va tiklash; yer uchastkalarini ajratish va olib kuyish loyihalarini tuzish; yer uchastkalaridan doimiy foydalanish va yer uchastkalariga doimiy egalik qilish huquqini beruvchi hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish; viloyat, tuman, shahar, qishloq; va boshqa ma’muriy hududiy bo‘linmalar chegaralarini aniqlash va tiklashni tashkil qilish; qayta tashkil etilayotgan qishloq; xo‘jalik korxonalari yerlarini qayta taqsimlash loyihalarini ishlab chiqish;
- plan (reja) kartografik hujjatlarni tayyorlash va yangilash ishlarini amalga oshirish;
- yerlearning grafik hisobini olib borish, tuproq bonitirovkasi, yerlearning qiymat bahosi (me’yoriy narxi)ni aniqlash, yer uchastkalarini inventarizatsiya qilish va hujjatlashtirish;
- aholi punktlari, chorvachilik va boshqa qishloq xo‘jalik ob’ektlari qurilishi hamda boshqa qurilishlar uchun yer uchastkasini tanlash;
- eroziyaga qarshi chora tadbirlarni ishlab chiqish, buzilgan yerlarni tiklash, xo‘jaliklararo va xo‘jalik ichki zovurlarini mexanizmlar bilan tozalash, rekultivatsiya qilish, kup yillik daraxtzorlarni yaratish, yaylovlarni yaxshilash, yerlarni o‘zlashtirish, ularning meliorativ holatini yaxshilash va yerlarni tubdan tiklash ishlari hamda yerdan foydalanish va ularni muhofazalash bilan bog‘liq

bo‘lgan boshqa kompleks tadbirlarni qo‘llash va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish;

Yer monitoringini olib borish, shu hisobda:

- kishloq xo‘jalik ekinlari yerlari va qishlok xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni o‘lchash;
- yerlarni inventarizatsiya qilish;
- yer monitoringi bilan bog‘lik bo‘lgan boshqa tekshiruv va qidiruv ishlarini amalga oshirish;
- Yer tuzish, yer monitoringi va davlat yer kadastro masalalari bo‘yicha me’yoriy hujjatlar loyihalarni, yer to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish bilan bog‘liq takliflarni ishlab chiqish;
- GAT (geoinformatsion axborot tizimi) ni bosqichma bosqich yaratish, Yer tuzish ishlarini kompyuterlashtirish, yer tuzish hujjatlari va xo‘jaliklar xaritasidan nusxa ko‘chirish ishlarini amalga oshirish.

Bundan tashqari loyiha instituti “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi bilan birgalikda yer tuzish bo‘yicha ishlarning mazmuni, texnologiyasi, vaqt me’yorlari va boshqa hujjatlar asosida yuriqnomalar, uslubiy yo‘riqnomalar ishlab chiqadilar.

## **8-BOB. YER TUZISHDA MEHNATNI ME’YORLASH**

### **§1. Mehnatni me’yorlashning mazmuni va mohiyati**

Ishlab chiqarishni tashkil etish va uni amalga oshirish uchun birinchi navbatda unga zarur bo‘lgan mehnat sarfi, shuningdek ma’lum bir ishni bajarish uchun qanday mutaxassis va malakaga ega bo‘lgan xodim kerakligi talab qilinadi.

Shunday ekan, mehnatni o‘lhash zaruriyati tug‘iladi. Ish vaqt singari u ham minutlarda, soatlarda, kunlarda o‘lchanadi. Rejalash tizimida mehnatni me’yorlashda hamda mehnatga xaq to‘lashda asosan ishlab chiqarish me’yori, vaqt me’yori, xizmat ko‘rsatish me’yori hamda mutaxassislar sonini aniqlash kabi qator me’yoriy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

1. Vaqt me'yori bu – ma'lum hajmdagi ishni bajarishga sarflanadigan vaqt (kun, soat);
2. Ishlab chiqarish me'yori bu – ma'lum vaqt birligida bajariladigan ish hajmi (kun, soat);
3. Xizmat kursatish me'yori bu – bir rahbar qo'l ostida ishlaydigan xodimlar soni.

Xar qanday ishni bajarishga sarflanadigan vaqt sarfi birinchi navbatda mehnatni tashkil qilish usullariga, mablag‘ga va bajaruvchining malakasiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham kerak bo‘ladigan mehnat sarfini to‘g‘ri va aniq belgilashda, avvalambor qo‘llanilayotgan texnologiyalarni texnik vositalardan foydalananilayotganlik holatini, ish joyini to‘g‘ri tashkil etishlik holatini har tomonlama tahlil qilish zarur bo‘ladi. Shuning asosida ancha takomillashgan texnologik jarayonlarni loyihalash mumkin bo‘ladi. Shunday ekan, mehnat jarayonini me'yorlashdan oldin uni birinchi galda takomillashtirish, iqtisodiy asoslash va shundan keyingina jonli mehnat sarfini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, ishlab chiqarishning anchagina takomillashtirilgan tashkiliy texnik sharoitda ma'lum bir ishni bajarishga sarflanadigan mehnat me'yorini belgilash jarayoni mehnatni me'yorlashning mohiyatini tashkil etadi. Bunday me'yorlash odatda texnik asoslangan me'yorlar, deb yuritiladi. Ammo e'tirof etish kerakki, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat sarfi me'yorlari faqatgina texnik jihatdan asoslanibniga qolmasdan, balki u iqtisodiy va fiziologik jihatdan ham asoslangan bo‘lishi kerak.

Bunda albatta butun ish kuni davomida xar bir odamning ishlash qobiliyatini yuqori saviyada ta'minlashi va dam olish tartibini to‘g‘ri tashkil qilish hisobga olinishi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mehnatni me'yorlash – mehnat unumdorligini oshirishga ta’sir qiluvchi barcha mavjud omillarni o‘rganish, ijodiy jarayonlar va mehnat me'yorini o‘rnatishga qaratilgan turli xil usullarning yig‘indisidir. Shuni alohida e'tirof etish kerakki, jamiyat rivojlanishining bugungi bosqichida me'yorlash mehnat unumdorligini oshirish, mehnatni va ishlab

chiqarishni tashkil etishni yaxshilash, uning doimiy ravishda o'sib borishi va takomillashuvini ta'minlash va nihoyat, mehnatkashlar turmushining moddiy darajasini oshirishda asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Yer tuzish ishlarida mehnatni me'yorlash, mehnatni tashkil qilish va rejalahtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

## **§2. Yer tuzishda mehnatni me'yorlashning rivojlanishi va takomillashishi**

Yer tuzishda mehnatni me'yorlash juda murakkab jarayon hisoblanadi. Bu bir tomondan yer tuzish bo'yicha ishlarni bajarishdagi tabiiy sharoitlarning turli xil bo'lishi, ikkinchi tomondan, yer tuzish bo'yicha bajariladigan ishlarning ko'pchilik qismi iqtisodiy, texnik va huquqiy jihatdan kompleks tarzdagи yechimlarni talab qiladi. Shularni e'tiborga olgan holda uzoq vaqt davomida yer tuzish ishlariga ishbay xaq to'langan. Bu esa o'z navbatida, ushbu usulda ishning yaxshi sifatda bajarilishini ta'minlash uchun bir xil me'yorlar ishlab chiqilishini talab qilgan, negaki, bu davrda yer tuzish ishlarini bajarishda qo'llaniladigan texnik vositalar unchalik takomillashmagan edi. Ikkinchi tomondan esa, ushbu ishlarni bajarishda faqatgina yer tuzuvchilar, aksariyat xollarda asosan yer tuzish ishlarining texnik qismini ham o'zları bajarganlar. Bu esa o'z navbatida, ushbu davr uchun joyning tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda me'yorlarni ishlab chiqishni taqazo etgan.

O'zbekistonda ham yer tuzish ishlarini me'yorlash, ayniqsa 1960 yildan keyin, ya'ni yer tuzish xizmatining xodimlari mehnatiga xaq to'lashning yangi tizimiga o'tilganidan so'ng ancha takomillashgan. Ishlab chiqilgan me'yorlar endi oldingilarga nisbatan faqatgina tuzilish tamoyillari, me'yorlanadigan birliklar, me'yorlarni tashkil etuvchi omillar bilangina emas, balki miqdorlari bo'yicha ham farq qilgan. Bu esa o'z navbatida, yer tuzish ishlariga me'yorlar ishlab chiqishda yagona ilmiy asoslangan uslublarning yo'qligidan dalolat bergen.

Yana bitta asosiy sabab shundan iborat bo'lganki, me'yorlar asosan tajriba-statistik yo'l bilan aniqlangan. Davlat yer tuzish loyiha instituti tashkil etilgandan

boshlab, ya’ni 1961 yildan, me’yorlashga, mehnatni ilmiy tashkil etish asosi sifatida katta ahamiyat berila boshlandi. Alovida tuzilgan yer tuzish ekspeditsiyasi tomonidan ishlab chiqarish me’yorlarini ishlab chiqish uchun tajriba ishlari olib borildi. Bunday tajribalar loyiha institutining barcha viloyatlaridagi filial va bo‘limlarida ham olib borildi. Natijada, respublika bo‘yicha yagona ishlab chiqarish me’yorlarini ishlab chiqish imkoniyati tug‘ildi. Hozirgi iqtisodiyotning bozor munosabatlari sharoiti mehnatni me’yorlash bo‘yicha ishlarni yanada yaxshilashni taqazo etadi. Buning uchun bu masala bilan doimiy ravishda shug‘ullanib borish kerakdir.

### **§3. Yer tuzish ishlarida mehnat me’yorlarining xususiyatlari**

Shuni alovida qayd qilish zarurki, yer tuzish bo‘yicha vaqt me’yorlarini bajariladigan ishlarning xarakteri, mazmuniga, mohiyatiga qarab loyiha, kuzatuv, topografogeodezik, hisoblash, chizmachilik, texnik bezash va boshqalarga ajratish mumkin. Bular ichida ayniqsa, loyiha ishlariga vaqt me’yorlarini ishlab chiqish juda murakkab jarayondir, negaki, yer tuzishda ko‘pincha ish ob’ekti bo‘lib alovida olingan yer uchastkasi xizmat qilmasdan, balki qishloq xo‘jalik korxonasining yer maydoni xizmat qiladi. Bu korxonalar yer egaliklarining o‘lchamlari va tashkiliy xo‘jalik tarkibi bir xil tabiiy sharoitda turlichadir. Bundan tashqari, loyiha ishlari iqtisodiy, texnik va huquqiy echimlar majmuasidan tashkil topgan bo‘lib, bular o‘z navbatida kuzatuv, loyihalash, texnik va chizmachilik bosqichlariga bo‘linganligidir.

Tabiiy sharoitlarning turli xilda bo‘lishligi va yer tuzish bo‘yicha bajariladigan ishlar harakterining murakkabligi me’yorlashda kuzatuv ob’ektini tanlashga ancha qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun ham mehnat bo‘yicha me’yorlar vaqtini murakkab toifalar bo‘yicha ishlab chiqish zarur. Bu esa o‘z navbatida, har bir ish turi bo‘yicha belgilanadi. Bu vazifani bajarish uchun butun mamlakat hududini maxsus mintaqalarga bo‘lish va ushbu mintaqalash materiallaridan foydalanish kerak bo‘ladi.

Yuqorida qayd qilinganidek, yer tuzish bo'yicha bajariladigan ishlarni me'yorlash ancha murakkab bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlar yer tuzish bo'yicha ishlarda ish vaqtি sarfini o'rganish, me'yorlash birligi va murakkablik toifasi singarilarni o'z ichiga oladi.

Loyiha harakteriga ega bo'lgan ishlarda, qoidaga binoan, faqatgina yer tuzuvchi muhandis qatnashibgina qolmasdan, balki boshqa mutaxassislar ham qatnashadilar. Bu ishlarga mehnat sarfi shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'lib, ularni alohida hisobga olish mumkin bo'lmaydi. Bundan tashqari, ish vaqtidagi ba'zi bir kechiqishlar, loyiha tashkiloti mutaxassislarini hisobga olgan holda yuqoridagi yer tuzish ishlarini bajarish uchun ish vaqtি sarfini o'rganishda tasvirga olish usulidan keng foydalanish mumkin. Ammo bu usul katta miqdordagi mehnat va moddiy harajatlarni talab qiladi: ish uzoq vaqtga, 2-3 oy va undan ortiq muddatga ham cho'zilishi mumkin. Bunday holatda eng yaxshi usul sifatida o'z-o'zini tasvirga olish usulidan foydalanish qulay. Uning mohiyati ish vaqtini yo'qotish miqdorlari va sabablarini aniqlashdan iborat bo'lmasdan, balki ishning alohida elementlarini yoki uning yaxlit turini bajarishga sarflangan ish vaqtি sarfini aniqlashdan iboratdir. Bu usul ayniqsa kuzatuv, tasvirga olish va plan-xaritalarni korrektirovka qilishda qo'l keladi.

Bu usulning ijobiy tomoni shundan iboratki, u ko'p sonli mutaxassislarni jalg' qilish va qisqa muddat ichida zarur bo'lgan kuzatuvlarni olish, shuningdek ish vaqtini tasvirga olish bo'yicha maxsus ishlarga sarflanadigan moddiy va mehnat harajatlarini ancha qisqartirish imkonini beradi.

Yer egaliklari chegaralarini tiklash va o'rnatish, loyihani joyiga ko'chirishda teodolit yo'llarini o'tkazish, shuningdek chizmachilik bezash ishlarini bajarishda ish vaqtি sarfini o'rganish, asosan fotoxronometraj kuzatuvi usulida o'tkazilishi kerak.

Yer tuzish ishlarini me'yorlashda me'yorlash birligini to'g'ri tanlash ham muhim amaliy ahamiyatga egadir. O'tkazilgan qator tadqiqotlar va amaliy ishlar shundan dalolat beradiki, loyiha ishining "tayyorgarlik va kuzatuv ishlari" bosqichi

bo‘yicha me’yorlash birligi bo‘lib, yer egalining o‘lchamlari, loyihani tuzish, joyiga ko‘chirishda ishlab chiqarish bo‘linmasi qabul qilingan. Bu holat shu bilan bog‘liqki, ko‘pincha bir xil kattalikdagi yer egaliklari chegarasida turli xil o‘lchamdagisi ishlab chiqarish bo‘linmalari bo‘lishi mumkin. “loyiha tuzish” bosqichining bajarilishi murakkabligiga turli omillar ta’sir etishini hisobga olib, vaqt me’yorini asosan tajriba-statistik usulda belgilash mumkin bo‘ladi. Ushbu bosqich bo‘yicha me’yorlash birligi qilib ishlab chiqarish bo‘linmalarining o‘rtacha miqdordagi o‘lchamlari qabul qilish mumkin. Aniq olingan yer egaligi uchun vaqt sarfini aniqlash uchun ishlab chiqarish bo‘linmalarining soniga qarab tuzatma koeffitsientlarni qo‘llash mumkin. Chizma ishlarida esa me’yorlash birligi bo‘lib, detsimetr, yozuvlarda esa so‘zlar hisobga olinadi.

Kuzatuv (tuproq, geobotanik va h.k.), tasvirga olish ishlari uchun me’yorlash birligi sifatida natural birlik sifatidagi maydonning o‘lchami getar qabul qilingan. Chiziqli elementlarni dala sharoitida o‘lchashda me’yorlash birligi bo‘lib kilometr, qabul qilinadi.

Umuman, qayd qilish zarurki, yer tuzish ishlari bo‘yicha me’yorlash birligi mehnat sarfi me’yorini to‘g‘ri belgilashda va nihoyat, shu asosida bajarilgan ishlarga to‘g‘ri xaq to‘lashda muhim ahamiyatga egadir.

Yer tuzish ishlarini bajarishga vaqt sarfini me’yorlash va rejorashtirishda mushkullilik toifasi ham hisobga olinishi kerak. Mushkullilik toifasi bu ma’lum bir birlik ishni ma’lum miqdordagi mehnat sarfi bilan bajarishga ta’sir etuvchi omillar asosida aniqlanadi.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, “O‘zdavyerloyiha” instituti tomonidan bajariladigan loyiha ishlarining vaqt me’yorida mushkullilik toifasi butun ish turi bo‘yicha yaxlit holda belgilangan. Masalan, yer tuzish va yer kadastrini bo‘yicha ishlarni bajarishda vaqt sarfining na’munaviy me’yorlarida (1981 y.) “loyihani tuzishga tayyorgarlik ishlari”, “loyihani tuzish” va “loyihani texnik jihatdan rasmiylashtirish” mushkullilik toifasi bir xil qilib belgilangan. 2005 yilda qaytadan ishlab chiqilgan na’munaviy me’yorlarda esa mushkullik toifasi har bir toifa

bo‘yicha alohida olingan. Jumladan, “loyihani bajarishga tayyorgarlik ishlari”da 4 ta mushkullilik (I, II, III va IV toifalar) toifalari, “loyihani tuzish”da 3 ta va “loyihani joyiga ko‘chirish”da esa 3 ta toifa qabul qilingan. Ushbu me’yorlarda mushkullilik toifasi joyning tabiiy sharoiti bo‘yicha qabul qilingan. Masalan, joyning mushkullilik toifasi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

I toifa. Cho‘l va yarim cho‘l tekislik yoki kam to‘lqinsimon balandlik. Qishloq xo‘jalik yerlari yirik-yirik konturlardan tashkil topgan.

II toifa. Tog‘ oldi yoki tog‘li joy. Ba’zi bir qishloq xo‘jalik yerlariga borish mushkul.

III toifa. Sug‘orish kanallari va yo‘l tarmoqlari rivojlangan tekis joy. Bir kvadrat detsimetrdagi konturlar soni 50 ta gacha.

IV toifa. Sug‘orish kanallari va yo‘l tarmoqlari rivojlangan tekislik yoki past-balandlik joy. Bir kvadrat detsimetrdagi konturlar soni 75 tagacha.

Mushkullilik toifasining bunday tavsifi hudud to‘g‘risida umumiyl tushuncha beradi va bajariladigan ishlarning mushkullilagini aniqlovchi omillarni ochib beradi.

Shunday qilib, yer tuzish bo‘yicha bajariladigan ishlarda vaqt sarfi me’yorini belgilashda asosiy omillardan biri bo‘lib, joyning mushkullilik toifasi xizmat qiladi. Uni hisobga olish bajariladigan ishning sifatini oshiradi va vaqt hamda mehnat sarfini to‘g‘ri hisob qilish imkonini beradi. Yer tuzish ishlarini me’yorlashning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, mehnatni me’yorlash uchun ish turlarining ishlab chiqarish jarayoni bir qancha bosqichlarga yoki qismlarga bo‘linganligidir. Ular o‘z navbatida mazmuni, tashkiliy texnik tomonlari bo‘yicha o‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlardan tashkil topgan.

Masalan, yer tuzish loyihalarida “loyihani joyga ko‘chirish” bosqichini bir qancha elementlarga bo‘lish mumkin: topshiriq olish, xo‘jalikda ishning bajarilishini tashkil etish; loyihaviy chegaralarni joyda belgilash va qo‘yish. Bunday bo‘linish ba’zan texnik me’yorlash ishi uchun etarli bo‘lmaydi, shuning uchun ham ular yanada kichik qismlarga, operatsiyalarga bo‘linadi. Ishlab chiqarish

operatsiyasi, asosan uchta belgi bilan tavsiflanadi: mexnat predmeti, ish joyi va bajaruvchining doimiyligi. Ushbu omillarning bittasining o‘zgarishi mana shu ish turining bir qancha operatsiyalarga bo‘linishiga olib keladi. Masalan, teodolit yordamida burchak o‘lchash ishini bir qancha operatsiyalarga ajratish mumkin: asbobni o‘rnatish, teodolitning gorizontal aylanasidan sanoq olish, jurnalga yozish, hisoblash va hokazo.

Yer tuzish ishlarini bajarishda mehnatni hamda vaqt sarfini me’yorlashning yana bir xususiyati shundan iboratki, turli yer tuzish ishlarini bajarish uchun bu yerda turli malakadagi mutaxassislar talab qilinadi. Masalan, yer tuzish ishlarini bajarish uchun turli toifadagi yer tuzuvchi muhandislar, texnik-topograflar, geobotanik, tuproqshunos, iqtisodchi va boshqalar talab qilinadi.

Umuman, yer tuzish texnik ish bo‘libgina qolmasdan, u ijodiy ish hisoblanadi, negaki, har bir bajarilgan ish huquqiy, texnik, tashkiliy hamda iqtisodiy jihatlarga asoslanadi. Shuning uchun ham bunday turli-tuman qirrali ishni bajarish uchun mehnatni me’yorlash so‘zsiz yuqoridagi kabi qator xususiyatlarga egadir. Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan yoki doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan me’yorlar bajariladigan yer tuzish ishlarining sifatini oshiradi.

#### **§4. Ish vaqtি sarfi klassifikatsiyasi va uni o‘rganish usullari**

“O‘zdavyerloyiha” instituti va uning barcha filial va bo‘limlarida bajariladigan yer tuzish ishlarida mehnatni me’yorlash uchun ma’lum bir ish turini ishlab chiqish jarayoni o‘z mazmuni va tashkiliy texnik munosabatlari bo‘yicha bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq elementlar yig‘indisidan tashkil topgan. Elementlar o‘z mazmunlari bo‘yicha bosqichning tugallangan tarzida namoyon bo‘ladi.

Texnik me’yorlash uchun ishlab chiqarish jarayonining bunday bo‘lishi, ba’zan etarli bo‘lmaydi, shuning uchun ham anchagina kichik qismlarga, ya’ni operatsiyalarga bo‘linadi. Ishlab chiqarish operatsiyasi asosan uchta belgi bilan

tavsiflanadi: mehnat predmeti, ish joyining va bajaruvchilarning doimiyligi. Ushbu shartlarning birortasining o‘zgarishi mazkur ishning alohida ishlab chiqarish opYeratsiyalariga bo‘linib ketishiga olib keladi.

Yer tuzish va topografo-geodezik ishlarni texnik me’yorlashda ishlab chiqarish jarayonini operatsiyalarga bo‘lish etarlidir. “O‘zdavyerloyiha” instituti, uning joylardagi filial va bo‘limlari tomonidan bajariladigan barcha yer tuzish, geodezik, tuproq, kuzatuv hamda qidiruv ishlarida mehnatni me’yorlashda barcha ishlar asosan, operatsiyalarga bo‘lingan. Vaqt sarfi me’yorlari asosan, ushbu operatsiyalarning bajarilishi bilan o‘lchanadi.

Qayd qilish zarurki, ish kuni davomida ishni bajaruvchiga faqatgina olingen topshiriqni bajarish emas, balki shu bilan bir qatorda, ushbu topshiriqni olish, ish joyini tayyorlash, uni tartibga keltirish, shuningdek, topshiriqni hech qanday tanaffussiz va muvaffaqiyatli bajarish uchun zaruriy chora-tadbirlar ko‘rish, ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishdagi tanaffuslar uchun vaqtini sarflashga to‘g‘ri keladi. Ba’zan bajaruvchining ishida uzilish bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, har qanday ishni bajarishga umumiyligi vaqt sarfini ikki qismga bo‘lish zarur: ish vaqt va ish vaqtidagi tanaffus vaqt.

Ish vaqt – bu vaqtning qonuniy belgilangan davri bo‘lib, shu muddatda tashkilot, korxonaning ichki kun tartibiga binoan, xodim o‘ziga yuklatilgan ishni bajarishi zarur. Mehnatni me’yorlash nuqtai nazaridan barcha ish vaqt asosan, me’yorlangan va me’yorlanmagan turlarga bo‘linadi. Topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘ladigan mehnat sarfi me’yorlangan vaqtga kiradi. U esa o‘z navbatida: tayyorgarlik-yakunlash ishlari vaqt, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq tanaffuslar, dam olish va shaxsiy zaruriyatlar uchun berilgan tanaffuslarga bo‘linadi.

Me’yorlanmagan vaqt – bu ishni bajarish davrida ko‘zda tutilmagan tanaffuslar vaqt, shu jumladan, ish bajaruvchining yashash joyidan ish joyiga borib kelishi, ko‘chib yurishi bilan bog‘liq bo‘lgan vaqt sarfi, shuningdek, ishlab chiqarish topshirig‘ida ko‘zda tutilmagan ishlarga (kamchilikni to‘g‘rilash, tasodifiy ish va boshqalar) sarflangan vaqtdir.

Tayyorgarlik-yakuniy ishlar vaqt – bu topshiriqni bajarish uchun olingan materiallar va instruktaj olish, ishga asboblarni tayyorlash va ularni tekshirish hamda taor mahsulotni (ishni) topshirishga sarflanadigan vaqtdir. Bu vaqt sarfi ayniqsa, dalada yer tuzish, geodezik va tuproqshunoslik ishlarini bajarishda ko‘proq uchraydi, negaki, dalada ish bajarish asboblarni ishga tayyorlash, ish joyini albatta har bir yangi ishni bajarish oldidan unga zarur bo‘lgan materiallar to‘planadi, o‘rganiladi, maxsus instruktaj o‘tkaziladi va shundan so‘ng, ishni bajarishga kirishiladi.

Tezkor ish vaqt – bu ushbu ish jarayonning yakuniy maqsadiga erishishga yo‘naltirilgan barcha operatsiyalarni bajarish vaqtidir. Tezkor vaqt, asosan, asosiy va yordamchi turlarga bo‘linadi. Asosiy ish vaqt texnologik jaryonni to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirish bilan bog‘liq. Masalan, geodezik ishlarni bajarishda bu burchaklarni va masofalarni o‘lchashga sarflanadigan vaqtdir. Yordamchi vaqt asosiy ishni (texnologik jarayonni) bajarish uchun zarur bo‘lgan turli harakatlarga sarflanadi. Bunga misol tariqasida o‘tkaziladigan teodolit yo‘lini bog‘lash uchun zarur bo‘lgan chegara belgisini qidirib topish, menzula yordamida tasvirga olishda o‘tish nuqtalarini aniqlash, ish vaqtida bir joydan boshqasiga ko‘chish, asboblarni o‘rnatish va hokazolarga sarflanadigan vaqtdir.

Ma’lumki, topshiriqni bajarish jarayonida asosiy va yordamchi ishlar doimo almashib turadi va ularni hisobga olish mushkuldir. Shu sababli ham, tezkor ish vaqt to‘la hisobga olinadi. Ko‘pincha hisob-kitoblarda yordamchi vaqt asosiy vaqtga nisbatan foizlarda aniqlanadi.

Ish joyiga xizmat ko‘rsatish vaqt – bu asbob-uskunalarni tozalash, ularni tekshirish, shuningdek ish joyida tartibni, tozalikni ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarga sarflanadigan vaqtdir. Bu jarayon ham muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, asosiy ishning to‘g‘ri va yuqori sifatlarda bajarilishini ta’minlaydi.

Yer tuzish ishlarini bajarishda shuni a’loxida e’tiborga olish zarurki, yuqoridagilar bilan birga yana ishning bajarilish texnologiyasi bilan bog‘liq tanaffuslar ham mavjud. Bunga misol sifatida tush, bo‘yoq, kley bilan olib

boriladigan ishlarda ularning qurishini kutishga sarflanadigan vaqtni keltirish mumkin.

Albatta, ish jarayonida dam olish va shaxsiy zaruriyatlar uchun sarflanadigan vaqtni ham alohida ajratish zarur. Bu vaqt butun ish kunida bajaruvchining mehnat qobiliyatini normal darajada ushlab turishga qaratilgan.

Yuqoridagilarning barchasi ma'lum yer tuzish ishlarini bajarish chog'ida sarf bo'lishi mumkin bo'lgan vaqtning umumiyligi yig'indisi hisoblanadi. Shularning barchasini hisobga olgan holda har bir yer tuzish, geodezik, yer kadastro, tuproqni tahlil qilish ishlariga sarflanadigan mehnat me'yordi aniqlanadi va ushbu aniqlangan me'yordi asosida na'munaviy vaqt me'yordi shlab chiqiladi.

Izoh: Ikkita bir-biridan alohida bo'lgan yer uchastkalarini ajratishda vaqt me'yoriga 1.06 koeffitsientni, uchtaga – 1.10gacha, to'rttaga – 1.15 gacha, oltita va undan ortig'iga – 1.20 gacha koeffitsientini qo'llash tavsiya qilinadi.

## **§5. Ish me'yorlarini belgilash usullari**

Yer tuzish bo'yicha loyiha va qidiruv ishlariga na'munaviy vaqt me'yordi "Yergeodezkadastr" Davlat qo'mitasi bilan "O'zdaverloviha" instituti etakchi mutaxassislari bilan birgalikda ishlab chiqiladi. Unda ish turlarining texnologik jarayonlari va ularni bajarilishning tashkiliy-texnik tomonlariga, ish yuritishda foydalaniladigan yo'riqnomalar, ko'rsatmalar hamda yer tuzish ishlari uchun mehnatni me'yorlash asos qilib olingan. Na'munaviy vaqt me'yordi quyidagi muhim xususiyatlardan biriga ega, ya'ni tashkilot rahbari Kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda bajariladigan ishning vaqtini ko'paytirish yoki kamaytirish huquqi berilgan. Qator me'yordi bo'yicha ilovalarda ulardan foydalanish sharoitlari hamda u yoki bu ta'sir ko'rsatuvchi omil uchun tuzatish koeffitsientlari berilgan. Na'munaviy me'yorining umumiyligi qismida ulardan foydalanish qoidalari berilgan. O'z mazmuni, tarkibi va joylashishi bo'yicha na'munaviy vaqt me'yorlarini quyidagi ikki qismga ajratish mumkin: yer tuzish sxemalarini tuzish, loyihalarni ishlab chiqish, geobotanika izlanishlari hamda,

chizma-bezak ishlarini olib borish va tuproqlarni tahlil qilish; chizma, hujjatlarni yangilash uchun geodezik, topografik, hisob-kitob, chizma-bezak ishlaridir. Yer tuzish ishlari bo‘yicha na’munaviy vaqt me’yorlari ish turlari bo‘yicha berilgan bo‘lib, asosan bosqichlar bo‘yicha ishlab chiqilgan. geodezik, topografik va boshqa ishlar uchun ham na’munaviy vaqt me’yorlari ishlab chiqilgan. Bunga sabab, bu ishlarni bajargan muhandis-texnik xodimlarga ishbay xaq to‘lanishidir.

Loyihaviy izlanishlar, geodezik va boshqa dala ishlariga oid vaqt me’yorlari quyidagilarga o‘rnatilgan: mushkullik toifalari; ishlarning mazmuni; ish bajaruvchilarning soni, malakasi va tarkibi; vaqt me’yorining o‘lchov birligi va hokazo. Vaqt me’yorini o‘rnatish usuli texnik jihatdan asoslangan tajriba-statistik turlarga bo‘linadi. Ishlab chiqarish turi va vaqtini me’yorlash birligiga texnik me’yorlashning quyidagi usullari o‘rnatiladi: me’yorlar bo‘yicha texnik, hisob-kitob qilish usuli; ishlab chiqarishga sarflanadigan vaqt sarfini texnik hisob-kitob qilish usuli; ish vaqtini mehnat sarfini kuzatish orqali hisoblash usuli; na’munaviy me’yorlash usuli.

Mehnatni me’yorlash usuli tabaqlashtirilgan va yiriklashtirilgan bosqichlarga bo‘linadi. Tabaqlashtirilgan me’yorlashga oid xar bir jarayon ish elementi bo‘yicha yiriklashtirilgan bosqich yoki butun ish hajmi o‘rnatiladi. U yoki boshqa xil kuzatuvlarni me’yorlash ilg‘or texnik vositalar va bajaruvchining mehnatini to‘g‘ri tashkil qilish asosida o‘rnatiladi.

Mehnatni me’yorlash quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- zamonaviy texnika, mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil qilish darajasini aks ettirgan holda mehnat unumdorligini oshirishni ta’minlovchi usullarni hisobga olish;

- aniqlangan yiriklashtirish darajasining mo‘ljallangan ishlab chiqarish turiga mos kelish;

- alohida taylorlangan, uni ishlab chiqarish vaqtida ta’sir ko‘rsatuvchi elementlar bajarilishi davriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni to‘g‘ri hisobga olish;

- aniq tashkiliy –texnik sharoitlar va ishlab chiqarish turiga ta’luqli bo‘lgan texnologik jarayonlarni hisobga olish;
- texnik asoslangan me’yorlarni hisoblashda foydalanish uchun qulay bo‘lish.

Ma’lum ishni bajarish davrida ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillarning ta’sirini hisobga oladigan texnik jihatdan asoslangan me’yorlar xar bir bajaruvchidan mehnatga ijodiy yondashishni, malakasini oshirishni, texnik vositalardan unumli foydalanishni talab etadi.

Tajriba-statistik me’yorlar shaxsiy tajribalar asosida yoki ishlab chiqarish hisobotlaridan olingan arifmetik ma’lumotlarni oldin bajarilgan ishlar bilan taqqoslash orqali o’rnataladi. Bu me’yorlar ishlab chiqarishni takomillashtirishga, xatolarni bartaraf etishga qaratiladi.

## **§6. Mehnat va vaqt bo‘yicha me’yorlarni ishlab chiqishning mazmuni va tartibi**

Vaqt me’yori va mehnat bo‘yicha me’yorlar ishlab chiqishda asosan quyidagilar hisobga olinishi maqsadga muvofikdir. Har bir tashkilotda me’yorlar ijtimoiy zaruriy ish vaqtini yoritishi doimo mumkin kadar ilg‘or bo‘lishidan, ya’ni ish vaqtidan hamda ilg‘or ishlab chikarish tajribalaridan imkonni boricha oqilona foydalanishni yoritishi zarur. Mehnat me’yori ilmiy asoslangan bo‘lishi zarur. Bu esa o‘z navbatida, ish haqini hisoblashda, ishlarni rejalashtirishda, mehnatni tashkil etishda foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, aniqlangan me’yorlar bir xil ish turlari yoki opreatsiyalar bo‘yicha yagona bo‘lishi, ushbu tarmoqda mehnat kilayotgan barcha mutaxassislariga to‘g‘ri kelishi kerak. O‘z navbatida, mehnat me’yorlarini belgilashda yoki doimiy ravishda takomillashtirib borishda mutaxassislarini o‘zlarini katnashishlari kerak.

Maxsus adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish shundan dalolat beradiki, mehnat va ish vaqtini sarfi bo‘yicha yer tuzish ishlarini bajarishdagi me’yorlarni ishlab chiqish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: kuzatuvga tayyorgarlik, kuzatuvni o‘tkazish, kuzatuv natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish. Bundan tashqari, har bir

bosqich ma'lum bir qismlardan iborat. Biz quyidagi har bir bosqich bo'yicha alohida to'xtalamiz.

1. Kuzatuvga tayyorgarlik ishlari me'yorlar ishlab chiqishning bosqichi bo'lib, o'z tarkibiga qator ishlarni oladi: yer tuzish bo'yicha ishlarni bajarishda vaqt me'yorlari va ishlab chiqarish me'yorlari, ish vaqt, mehnat sarfini o'rganish bo'yicha mayjud materiallarni to'plash, tizimga keltirish va tahlil qilish. Bu ish bajarilganidan so'ng, asosiy ishni bajarishning umumiyligi uslubiyati va rejasini tuziladi. 2. Mavjud bo'lgan tajriba asosida ish turi yoki uning alohida jarayoni umumiyligi mazmunidan kelib chiqqan holda barcha ishlab chiqarish jarayonining maqbul echimini aniqlash. Bunda yaxlit ishning elementlari yoki operatsiyalari va ularning mazmuni aniqlanadi. E'tirof etish kerakki, har bir element bo'yicha uning bajarilishiga sarflanadigan vaqt sarfini mumkin kadar qisqartirish nuqtai nazardan tahlil qilinishi va har bir operatsiya yoki elementni bajarishning boshlang'ich hamda yakuniy nuqtalari aniqlanadi. Bu nuqtalarni aniq qilib belgilash har bir element bo'yicha vaqt sarfi hisobini aniq yuritib borish imkonini beradi. 3. Ishlab chiqarish sharoitidan, birlashish yoki alohidalik zaruriyatlaridan kelib chiqqan holda ishning mazmuni va harakterini hisobga olib, ish turi elementlarini bosqichlarga guruhlash. 4. Tahlil asosida har bir bosqichning elementlari bo'yicha kuzatuv ob'ektining me'yorlash birligini, ish joyini, mehnat vositalarini, bajaruvchini, ish vaqtini o'rganishning maqbul usullari va ish elementlarining davomiyligiga qarab, kuzatuvalar sonini belgilash. 5. Yozish, kayd qilish uchun zarur bo'lgan shakllarni tayyorlash.

Yuqorida sanab o'tilgan ishlar kuzatuvga tayyorgarlik ishlari doirasida bajariladigan harakatlar hisoblanadi va ular me'yorlar ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar hamda materiallar to'plashda muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Tayyorgarlik ishlari to'la bajarilgandan so'ng, qabul qilingan usullar yordamida to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvga kirishiladi.

Fotoxronometrik usul yordamidagi kuzatuvda bajarilgan ishlarning operatsiyalari bo'yicha alohida elementlari butun yaxlit ish bo'yicha hisobga olgan

holda hamda unga ta'sir etuvchi omillarni qayd qilgan holda ish vaqtining barcha sarflari qayd qilinadi.

Kuzatuv ob'ektiga qarab, ish vaqtini ro'yxat qilishda uchta usuldan foydalanish mumkin: sonli, grafik va birgalikdagi. Ish vaqtি sarfi soat yoki sekundlar yordamida qayd qilib boriladi.

Sanoq olish aniqligi opyeratsiyaning, elementning davomiyligiga va ish vaqtি sarfini o'rganish usuliga bog'liq.

Kuzatuv natijalari odatda belgilangan shakllarda jurnalda yozib boriladi. Unda tashkilotning va ishlab chiqarish bo'linmalarining nomi, kuzatuv joyi va ob'ekti, ish turi, bosqichi yoki elementi, ish tarkibi, sharti va ishni tashkil etish, birlamchi materiallar va ularning tavsiyasi, oldin belgilangan vaqt me'yori va uning bajaruvchilar tomonidan ado etilishi, kuzatuv davrida bajarilgan, qabul qilingan ish hajmi, bekor turib qolish hollarining tavsifi va ish to'g'risida boshqa ma'lumotlar yozib boriladi. Kuzatuvchi doimiy ravishda o'zi ish vaqtি sarfini to'g'ri hisobga olib borilayotganligini nazorat qilib turishi zarur.

Kuzatuv natijasida olingan barcha ma'lumotlar qayta ishlanadi, bir tizimga keltiriladi va tahlil qilinadi. Bu ish odatda, ikki bosqichda bajariladi: oldindan va yakuniy. Olingan ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash va tahlil qilish ishini kuzatuvchining o'zi amalga oshiradi. Yakuniy qayta ishlash va tahlil qilishni esa, maxsus guruh yoki boshqa tashkilot amalga oshiradi va natijada vaqt me'yorlarini belgilaydi.

Kuzatuv natijalarini qayta ishlash maxsus bo'sh qaydnomalarda quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Oldingi xar bir operatsiya yoki yaxlit element bo'yicha bitta o'lchovni vaqt sarfining o'rtacha arifmetik qiymati aniqlanadi. Keyin har bir toifa harajatlar bo'yicha ularning jamlangan qiymati aniqlanadi, ular obdon tekshiriladi va shunda ishlar bo'yicha mavjud me'yorlar bilan solishtiriladi. Olingan qiymatlar asosida ish vaqtining balansi tuziladi. U quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin.

$$T_{i.v.d} = T_{t.i.v} + T_{i.x.k.v} + T_{b.t.v} + T_{t.ya.v}$$

bu Yerda:  $T_{i.v.d}$  - ish kunining belgilangan davomiyligi;

$T_{t.i.v}$  – tezkor ish vaqt;

$T_{i.x.k.v}$  – ish joyida xizmat ko‘rsatish vaqtining me’yori;

$T_{b.t.v}$  – ish joyida belgilangan tanaffus vaqt;

$T_{t.ya.v}$  – ishga tayorgarlik yakunlash vaqtining me’yori.

Tezkor ish vaqt quyidagicha bo‘ladi:

$$T_{t.i.v} = T_{a.i.v} + T_{yo.i.v}$$

bu Yerda:

$T_{a.i.v}$  – asosiy ish vaqt;

$T_{yo.i.v}$  – yordamchi ish vaqt.

Belgilangan tanaffuslar vaqt quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$T_{b.t.v} = T_{q.m.d.v} + T_{sh.z.v}$$

bu yerda:

$T_{k.m.d.v}$  – qisqa muddatga dam olish vaqtining me’yori;

$T_{sh.z.v}$  – shaxsiy zaruriyatlar uchun vaqt me’yori.

E’tirof etish zarurki, yer tuzish bo‘yicha bajariladigan ishlarga mehnat me’yorlarini qo‘llash me’yorlash bo‘yicha ishlarning eng ko‘p murakkab va mas’uliyatli bosqichi hisoblanadi. Uning natijalari o‘z navbatida mehnatni tashkil etish, me’yorlash va xaq to‘lash bo‘yicha chop etiladigan me’yoriy yo‘riqnomalarda yoritiladi.

Mehnat me’yori va me’yorlashni joriy etish jarayoni asosan tekshirish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va o‘zlashtirishdan iborat. Bu ishlar loyiha tashkilotining bosh muhandisi rahbarligida o‘tkaziladi.

## **§7. Yer tuzish bo‘yicha loyiha va qidiruv ishlarining harakatdagi na’munaviy me’yorlari tavsifi va ulardan foydalanish**

Yer tuzish, yer kadastri va monitoring ishlarini “O‘zdavyerloyiha” instituti hamda uning bo‘limlarida bajarish ushbu ishlarga belgilangan vaqt sarfi me’yorlari

asosida amalga oshiriladi. Bu me'yorlar asosan, “Na'munaviy vaqt me'yorlar” bo'lib, ushbu me'yorlar asosida hozirgi kunda ish turlarining bajarilish qiymatlari aniqlanadi. Biz quyidagi ba'zi-bir yer tuzish, yer kadastro ishlarini bajarishga sarflanishi mumkin bo'lgan vaqt sarfi me'yorlarini tahlil qilamiz.

Shuni alohida qayd qilish zarurki, mavjud vaqt sarfi me'yorlari 8.2 soatlik ish kuni va 21.2 kunlik oyiga mos holda belgilangan. Bundan tashqari, uni ishlab chiqishda bajaruvchilarni zaruriy materiallar, hujjatlar, asbob-uskunalar, topshiriq bilan o'z vaqtida ta'minlash, qulay mehnat sharoitini ta'minlanishi ko'zda tutilgan.

Biz quyida, hozirgi kunda Respublika yer tuzish bo'yicha loyiha tashkilotlari tomonidan tez-tez bajarilib turadigan yer tuzish, yer kadastro, geodeziya va tuproq-qidiruv ishlariga belgilangan vaqt sarfi me'yorlarining mavjud holatlarini tahlil qilib ko'ramiz.

Ma'lumki, xo'jaliklararo yer tuzish o'z ichiga bir qator yer tuzish ishlarini oladi. Jumladan, yangi xo'jaliklar tuzish (hozirgi davrda juda ko'paygan bunday harakat), mavjud xo'jaliklar chegaralaridagi xato-kamchiliklarni tugatish, yer ajratish, aholi punktlari chegaralarini aniqlash va hokazolar. Qanday ish bo'lishidan qat'iy nazar, birinchi galda quyidagi bosqich ishlari bajariladi.

### 1.1 Tayyorgarlik ishlari va dala kuzatuvlari.

#### 1.1.1 Tayyorgarlik ishlari.

Ishning mazmuni: yerdan foydalanish huquqini tasdiqlaydi va yer tuzish ishlari qamrab oladigan qishloq xo'jaligi korxonalari, tumanda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hozirgi holati hamda istiqbolda rivojlanishini tavsiflaydigan materiallarni tanlash va o'rganish (yer tuzish, yerlarni melioratsiyalash, chizma loyihalari, yer kadastro ma'lumotlari, zaruriy iqtisodiy-statistik ma'lumotlar), tuproq, geobotanik, agroxo'jalik kuzatuvlari materiallarini to'plash. Yer tuzish ishlari o'tkaziladigan xo'jaliklar hududlarida uzoq muddatga ijaraga berilgan yer uchastkalarining joylashgan o'rni va miqdorini aniqlash.

Loyihalash uchun topshiriqni ishlab chiqishda qatnashish. Yangi yer egaliklarini joylashtirishning imkonini bo'lgan echimlarini aniqlash. Dala

kuzatuvlari bo‘yicha ish hajmlarini aniqlash hamda uni o‘tkazish jadvalini tuzish. Manfaatdor yer egaliklariga kuzatuv ishlarini o‘tkazish muddatlari to‘g‘risidagi xabarnomalarini yuborish.

Tayyorgarlik materiallari bo‘yicha tushuntirish xatini yozish.

Ishni bajaruvchilar: etakchi muhandis – 1

I, II toifadagi muhandis – 1

Muhandis (agronom iqtisodchi) – 1

2.3.-jadval

Vaqt sarfi me’yori (odam/oy)

o‘lchov birligi-loyiha

T/R	Yer tuzish o‘tkaziladigan xo‘jaliklar soni	Tumanning maydoni, ming, ga			
		100 gacha	101-300	301-500	501-750
1	2	0.93	1.04	1.13	1.22
2	3	1.07	1.16	1.25	1.36
3	4	1.18	1.28	1.37	1.51
4	5	1.30	1.39	1.49	1.61
5	6	1.41	1.52	1.61	1.71

Izoh: 1. Vaqt sarfi me’yori bu yerda tuman chegarasida xo‘jaliklararo yer tuzishni o‘tkazishdagi tayyorgarlik ishlarini bajarish ko‘zda tutilgan.

2. Yangi xo‘jaliklar tashkil etish yoki xo‘jaliklarni qayta tashkil etish bilan bog‘liq xo‘jaliklararo yer tuzishni o‘tkazishda jadvalning 3-grafasidagi ma’lumotlarga asoslanib, bitta qishloq xo‘jalik korxonalariga 0.45 koeffitsientini qo‘llash bilan ishni bajarish ko‘zda tutiladi.

Ishning mazmuni: xo‘jalik hududini tashkil etish elementlari hisoblangan dala shiyponlari, fermalar, aholi yashash joylari, sug‘orish kanallari, yo‘llar va boshqalarni qayta tashkil etiladigan yerlar bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish va

dala kuzatuvlari. Qayta tashkil etiladigan xo‘jaliklar, begona yerdan foydalanuvchilar, ijara Yerlari chegaralariga aniqliklar kiritish hamda ushbu chegarada yerdan xaqiqiy foydalanish holatini o‘rganish. Qayta taqsimlangan yerlarning unumdorlik darajasini aniqlash. Yeri qayta taqsimlanishi natijasida yer egaliklarining ko‘radigan zararini aniqlash. Dala kuzatuvlari chizmasini rasmiylashtirish va dalolatnomasini tuzish.

Ishni bajaruvchilar: etakchi muhandis-1

I, II toifadagi muhandis-1

Muhandis (agronom iqtisodchi)-1

2.4-jadval

Vaqt sarfi me’yori (odam/oy)

o‘lchov birligi – loyiha

T/R	Kuzatiladigan Yer maydoni, ming, ga.	Mushkullik toifasi		
		I	II	III
Masshtab 1:10 000				
1	1 gacha	0.29	0.41	0.45
2	3	0.33	0.45	0.51
3	5	0.36	0.50	0.57
4	7	0.41	0.55	0.64
5	10	0.45	0.62	0.71

Izoh: Vaqt sarfi me’yori har bir hududda 5 ta alohida uchastkalarning dala kuzatuvlarini olib borishni ko‘zda tutiladi. Agarda bunday uchastkalar soni 6-10 bo‘lsa – 1.08, 11-15-1.12, 15-20-1.15 gacha, 30 dan ortiq bo‘lsa-1.30 gacha koeffitsient qo‘llaniladi.

## 2. Loyihani tuzish.

Ishning mazmuni: Yangi tashkil etiladigan xo‘jaliklar chegaralarini belgilash va loyihalash. Loyiha echimlarini tuzish va iqtisodiy jihatdan asoslash. Xar bir yechimning yaxshi va yomon tomonlarini tahlil qilish va ulardan bittasini tanlash

hamda kelishtirish. Tayyor asosda xo‘jaliklararo yer tuzish loyihasining mualliflik originalini tayyorlash va texnik iqtisodiy asoslari bilan birga tushuntirish xatini tayyorlash.

Ishni bajaruvchilar: etakchi muhandis-1

I, II toifadagi (agronom iqtisodchi)-2

2.5-jadval

Mavjud qishloq xo‘jalik korxonalari asosida yangi xo‘jaliklar tashkil etish

Vaqt sarfi me’yori (odam/oy)

o‘lchov birligi – loyiha

T/R	Yer tuzish o‘tkaziladigan xo‘jaliklar soni	Yer tuzish ishlari o‘tkaziladigan xo‘jaliklar soni					
		1	2	3	4	5	6
1	1	1.45	1.83	2.22	2.61	2.99	3.38
2	2	2.32	2.71	3.10	3.49	3.86	4.25
3	3	3.19	3.58	3.97	4.35	4.74	5.15
4	4	4.06	4.45	4.84	4.84	5.61	6.00

Bu yerda shunga izoh berish zarurki, yuqoridagi vaqt sarflari me’yorlari umumiylar maydoni 10.0 ming ga dan iborat bo‘lgan yangi tashkil etiladigan xo‘jalik uchun belgilangan. Agarda ushbu xo‘jalikning maydoni 10.0 ming ga dan kichik bo‘lsa, vaqt sarfi me’yori har 1,0 ming ga hisobida 0.02 odam/oyga qisqaradi.

Bundan tashqari, yuqoridagi vaqt sarfi me’yori II-toifa mushkulligi, I-toifa vaqt sarfi me’yoriga 0.94 koefitsientini, III- toifa bo‘lsa-1.13 koeffitsientini qo‘llash ko‘zda tutilgan.

Biz yuqorida faqat xo‘jaliklararo yer tuzishning hozirgi kunda eng dolzarb ko‘rinishlaridan hisoblangan eski xo‘jaliklarni qayta tashkil etish asosida yangi shakldagi xo‘jaliklarni tashkil etish loyihasini tuzishda zarur bo‘ladigan mutaxassislar turi va vaqt sarfi me’yorlari bilan tanishdik, xolos. Bunday me’yorlar Yer tuzish, Yer kadastri, geodeziya va tuproq qidiruvi bo‘yicha bajarilishi mumkin

va lozim bo‘lgan barcha ish turlari bo‘yicha mavjud bo‘lib, ular maxsus “Na’munaviy me’yorlar to‘plami” ni tashkil etadi. Ushbu me’yorlarni ishlab chiqishda juda ko‘p mutaxassislar qatnashganlar. Ular maxsus xronometraj, tasvirga olish va o‘z-o‘zini tasvirga olish usullari yordamida me’yorlarni yaratganlar.

Yuqoridagilardan tashqari, foydalanilayotgan me’yorlarda har bir bajarilgan ish maxsus hujjat asosida tasdiqlanishi va ishning rahbari tomonidan qabul qilinishi ko‘zda tutilgan. Bunda ish rahbarlari asosan, loyihaning bosh muhandisi hisoblanadi. Mavjud me’yorlar mehnatga xaq to‘lashning ishbay shaklida hamda vaqtbay shaklida mehnat qilayotgan muhandis-texnik xodimlarga baravariga qo‘llaniladi. Ammo, shu bilan birga, bajaruvchi bilan hisob-kitob qilishda ishbay shakli uchun qabul qilingan vaqt me’yorlariga mos holda qo‘srimcha tarzda maxsus narxlar ishlab chiqiladi va qo‘llaniladi.

Yer tuzish mutaxassislarining kundalik ishga borib kelishlarida yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotining jamoat transportidan foydalanilganligi uchun sarflangan vaqt uchun xaq to‘lash me’yorlarda ko‘zda tutilmagan. Bu masala hozirgi kunda ayniqsa, viloyatlarda joylashgan yer tuzish tashkilotlariga tegishli. Chunki xodimlarning aksariyat qismi tuman qishloqlaridan ishga kelishadi. Natijada, juda ko‘p vaqt yo‘lga sarf bo‘ladi, bundan tashqari, ishga borib kelishga katta mablag‘ sarflanadi. Yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkiloti ularni o‘z avtotransportida ishga olib borib, olib kelishi hozirgi kunda mavjud emas. Shuning uchun bizningcha, ushbu vaqt va mablag‘ sarfini qisman bo‘lsada qoplash uchun qo‘srimcha ravishda ma’lum bir manfaatdorlik yo‘llarini qidirib topish va amaliyotga tadbiq etish zarur. Bu masala yer tuzish ishlarini bajarish uchun ob’ektga chiqishda ham muhimdir. Ba’zi bir viloyatlarda dalaga chiqish, ya’ni uzoq tumanlar, xo‘jaliklarga chiqish uchun transport vositasi yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkiloti tomonidan ajratiladi, lekin aksariyat viloyatlarda bunday imkoniyat yo‘q. Viloyat hududi katta, ob’ektga borish yo‘li uzoq. Jamoat tarnsportidan foydalanish ancha noqulay. Buning natijasida ko‘p vaqt va mablag‘

ob'ektga borib kelishga sarflanadi. Bu esa, yer tuzish ishining sifatiga ham ta'sir etmasdan qolmaydi.

Eksperimental loyihalar, sxemalarni ishlab chiqishda buyurtmachi bilan kelishilgan holda vaqt me'yorlariga 1,50 koeffitsient qo'llanilishi ko'zda tutilgan. Ma'lumki, bu koeffitsientlar ham bizningcha uncha muvofiq emas, chunki bugungi kunda, ayniqsa qishloq xo'jaligida turli-tuman xo'jalik shakllari vujudga kelmoqda. Bunday xo'jaliklar oldin umuman bo'lmagan, ularning xo'jalik tarkibi, yerdan foydalanish shakllari turlichadir. Shu sababli, ushbu xo'jaliklar uchun eksperimental loyihalar va loyiha hujjatlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqli.

Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha bajarilayotgan loyihaning echimlarini alohida topshiriq sifatida ishlab chiqishda asosiy yechim bo'yicha keyingi barcha echimlariga quyidagi koeffitsientlar qo'llanidadi:

- oldin ishlab chiqilgan materiallardan foydalanilmasdan yechimni ishlab chiqishda -0.70;
- asosiy yechim materiallaridan 40% gacha foydalanilgan taqdirda -0.50;
- asosiy yechim materiallaridan 60% gacha foydalanilgan taqdirda -0.30;

Ammo bu yerda shuni ta'kidlash joizki, asosiy echim materiallaridan qancha foiz foydalanilganligini aniq bilish juda mushkul, shu sababli, agarda oldingi ishlab chiqilgan materialdan foydalanilgan bo'lsa, umumiylar tarzda 0,4 koeffitsientini qo'llash mumkin bo'ladi.

Noqulay ob-havo sharoitida dala ishlarini bajarishda vaqt me'yoriga 1.2 koeffitsient qo'llash ko'zda tutiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi hududida yilning anchagina qismiga issiq xaroratlari iqlim sharoiti xos. Ayniqsa, yoz oylari (iyun, iyul va avgust)da xavo xarorati nihoyatda ko'tarilib ketadi. Yer tuzish bo'yicha ham dala ishlarining aksariyat qismi ayni shu paytda bajariladi. Issiq haroratda dalada ishslash ancha murakkabdir. Shuning uchun vaqt me'yor uchun qo'llanilayotgan ushbu koeffitsientni kattaroq qilib olish, masalan, 1,25dan 1,5 gacha qabul qilish zarur.

Mehnat turi va vaqt me'yori bo'yicha ishlab chiqilgan na'munaviy me'yorlardagi asosiy xususiyatlardan biri bu – ish turlari, joyning mushkullik toifasining o'rnatilganligidir. Xaqiqatdan ham, tahlil ko'rsatadiki, turli yer tuzish ishlari turlicha xususiyatlarga egadir, ob'ektlar ham turlicha relefga, tuproq xususiyatlariga, iqlim sharoitiga ega. Bunday holatda yer tuzish ishlarini bajarish uchun joyni mushkullik toifalariga bo'lish va har bir toifa bo'yicha vaqt me'yorlarini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Umuman, yuqoridagilardan qisqacha xulosa qilish mumkinki, "O'zdavyerloyiha" ilmiy loyihalash instituti va uning joylardagi bo'linmalari tomonidan turli-tuman yer tuzish ishlarini bajarishda qo'llanilayotgan me'yorlar umumiyl holda deyarli talabga javob beradi. Lekin uni yuqorida keltirilgan taklif va muloxazalardan foydalanilgan holda takomillashtirish zarur. Umuman, yer tuzish ishlarining turlari bo'yicha vaqt me'yorlari o'zgarmas narsa emas. Shu sababli, yangi texnika, texnologiyalarning yaratilishi bilan yangicha yondashuvning vujudga kelishi asosida uni ko'rib chiqish zarur. SHuning uchun amaliyotda mavjud bo'lgan turli ilg'or usullardan foydalanilgan holda Yer tuzish loyiha tashkilotlaridagi mavjud me'yorlarni yangilab turish, takomillashtirib borish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

## **9 - BOB. YER TUZISHDA MEHNATGA HAQ TO'LASH**

### **§1. Mehnatga haq to'lashni tashkil qilishning asosiy tamoyillari**

Moddiy boylikning mehnat miqdori va sifatiga qarab taqsimlanishi, bu jamiyatning iqtisodiy qonunidir.

Mehnat bo'yicha ish haqining taqsimlanishi, bu ishlab chiqarishni tashkil qilishga, mehnat unumdorligini oshirishga turtki hisoblanadi. Ish haqini tashkil qilishda turli xil iqtisodiy qonunlarni hisobga olish kerak, bu mehnat bo'yicha taqsimlanish qonuni, qiymat qonuni, xalq xo'jaligini rivojlantirishni rejalashtirish qonuni va boshqalar. Mehnatni taqsimlash asosida quyidagi mezonlar yotadi: ish

haqi sohasida tashkil etish huquqi bilan ish haqini markazlashgan boshqaruvning maqbullashtirish mehnat taqsimotining jamoa shartnomaga uslubini ishlab chiqish. Mehnatga haq to‘lashni tashkil qilish quyidagi tamoyillarga tayanishi kerak.

1. Mehnat natijalari buyicha ish haqi to‘lash.

Ish haqi (“har kimga ishiga yarasha”) “ikki xil talqinga” ega... Mehnat deganda yoki uni natijasini, yoki ish harajatlarini (ish miqdori) tushinish mumkin, “Ish harajatlari buyicha” tamoyili individual ish haqini kafolatlagan ammo uni boshqarmagan. Mehnat buyicha harajatlarni hisobga olgan holda emas, uning natijalariga ko‘ra amalga oshiriladi.

2. Xodimlarning o‘ziga ishonchhliligi va himoyalanganligi.

Ish haqi xodimlarda ertangi kunga ishonch va tashkilotning tashqi, ichki muhitidagi o‘zgarishlardan himoyalanganlikni shakllantirishi lozim.

Xodimlar imkon qadar o‘z e’tiborini tashkilotning asosiy vazifalariga qaratishi lozim.

3. Ish haqining rag‘batlantiruvchi va qo’llab quvvatlovchi.

Ish haqi tizimi rag‘batlantiruvchi va qo’llab quvvatlovchi vositalarni o‘z ichiga olishi lozim. Shu sababli qo‘srimcha to‘lovlardan kiritiladi.

4. Shaxsiy hissa qo‘siganlik uchun qo‘srimcha ish haqini to‘lash shakllari.

Asosiy ish haqida qo‘srimchani tashkilot xodimining alohida sifatli ishini yoki tashkilot uchun muhim natijalarni baholash va hisobga olish uchun belgilaydi.

## **§2. Mehnatga haq to‘lash tizimi va shakllari**

Jamiyatimizda ikkita asosiy shaklda ish haqi qo’llaniladi, yani ishbay va vaqtbay ish haqi. Ishbay ish haqi shaklida to‘lanadigan mehnat haqi bajariladigan ishning hajmi va sifatiga qarab belgilanadi. Mehnatga vaqtbay ish haqi to‘lash, bu mehnat natijalarini o‘lchov birligi bo‘lmagan xodimning xaqiqiy ishlagan vaqtiga va malakasiga qarab belgilanadi. Bunday ish haqini to‘lash shakllari ishlab

chiqarish xususiyatiga qarab bir necha ko‘rinishda bo‘lib, ular bir butun ish haqi to‘lash tizimini vujudga keltiradi.

Mehnatga ishbay shaklida ish haqi to‘lash to‘g‘ri ishbay, mukofotli ishbay vaakkord ishbay shakllarga bo‘linadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishning sharoitiga qarab, ishbay shaklida ish haqi yakka va guruhli ishbay shaklida bo‘lishi mumkin. Ishbay ish haqi shaklini qo‘lashda ishlab chiqarish meyori yoki vaqt meyori asos qilib olinadi. Vaqtbay ish haqi oddiy vaqtbay va mukofotli vaqtbay shakllarga bo‘linadi. Oddiy vaqtbay shaklida haq to‘lash deganda, xodim bajargan ishning hajmi yoki miqdorini o‘lchash imkoni bo‘lmaqanda, haqiqiy ishlagan vaqt uchun oy, smena, soat sxemasi bo‘yicha to‘langan ish haqi tushuniladi.

Mukofotli vaqtbay ish haqi shaklida haq to‘lash malum bir ko‘rsatgichga erishilganda, sifat ko‘rsatishi yuqori bo‘lganda beriladigan mukofot pulidir.

To‘g‘ri ishbay haq to‘lash deganda, har bir xodim yoki mutaxassis bajargan ish hajmiga yoki etishtirgan mahsulotiga qarab olgan ish haqi tushuniladi. Mehnatiga mukofotli ishbay ish haqi to‘lashda to‘g‘ri ishbay haq to‘lashni saqlab qolgan holda bajarilgan ish hajmi uchun, u qisqa muddatda, sifatli va ishlab chiqarishga sarf qilinadigan moddiy harajatlarning tejalganligi uchun beriladigan mukofot pulidir.

### **§3. Yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlarida**

#### **mehnatga haq to‘lashni tashkil qilish**

Yer tuzish bo‘yicha loyiha tashkilotlarida mehnatga haq to‘lash mukofotli vaqtbay va mukofotli ishbay shakllarda amalga oshiriladi. Mukofotli vaqtbay ish haqi rahbarlar, muhandis-texnik va xizmat ko‘rsatish xodimlariga to‘lanadi. Lavozimlari bo‘yicha belgilangan razryadlar orqali ish haqi to‘lanadi. Loyerha tashkilotlarining rahbarlari yuqori vakillik organlari ruxsati bilan va mahalliy kasaba uyushmasi bilan kelishilgan holda, asosiy ish haqi fondidan ikki foiz atrofida yuqori malakali mutaxassislarga lavozimlari bo‘yicha oylik maoshlariga 30 foizgacha ustama haq to‘lash belgilanadi. Filial va bo‘limlardagi boshqaruv

apparati xodimlariga esa, 20 fozigacha oylik maoshlariga ustama haq to‘lash belgilanadi.

Ish yuzasi bilan bog‘liq ishlarni bajarishga borgan xodimlarga xizmat safari uchun haq to‘lanadi. Xizmat safari bilan bog‘liq harajatlar "Xizmat sifatiga haq to‘lash bo‘yicha yo‘riqnomalar"ga asosan to‘lanadi.

Mukofotli vaqtbay ish haqi to‘lashda asosiy hujjat ish vaqtini hisobga oluvchi tabel hisoblanadi. Mukofotli ishbay ish haqi tizimi qidiruv, izlanuv, texnik hisoblash, chizma-rasmiy lashtirish ishlarni bajaruvchi mutaxassislar qo‘laniladi. Bu ishlarni bajarish uchun muhandislar, tuproqshunoslar, geobotaniklar, katta texniklar, chizmakashlar, laborantlar jalb qilinadi.

Yer tuzish bo‘yicha qidiruv, izlanuv va topografo-geodezik ishlarni bajaruvchi mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash mavjud bo‘lgan vaqt me’yorlari va boshqa me’oriy hujjatlar orqali amalga oshiriladi.

Tabiiy iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda loyiha tashkilotlarining mutaxassislariga asosiy ish haqiga qo‘srimcha qilib rayon koeffitsentlari 1.15 dan 2 gacha oraliqda to‘lash belgilanadi. Rayon koeffitsentlari va ustamalar joriy qilinadigan joylarning ro‘yxati, ularning qo‘llanish tartibi va miqdori O‘zbekiston Respublikasi xukumati tomonidan belgilanadi.

Dala sharoitida ishlarni bajarayotgan mutaxassislar qo‘srimcha lavozimlik maoshi haqidan 40-50 foiz miqdorida dala qo‘srimchasi to‘lanadi. Bunda hisob-kitob ishlarni olib borish uchun asosiy hujjat bo‘lib topshiriq – hisobot xizmat qiladi.

Ishbay va vaqtbay ish haqi bilan birga xodimlarga qo‘srimcha rag‘batlantirish ya’ni mukofot puli to‘lanadi.

Mukofotlash shartlari qoida buyicha mehnat shartnomasida kelishib olinadi.

Yer tuzish buyicha tashkilotlar xodimlarining mukofotlash, "Loyiha tashkilotlari xodimlarining mukofotlash tartibi to‘g‘risida"gi yo‘riqnomaga muvofiq yillik ish xaqi fondidan 6.5 foizgacha miqdorda mukofot pulini ajratish ko‘zda tutiladi.

#### **§4. Xizmat safariga haq to‘lash**

Loyiha ishlarini bajarish bilan bog‘liq ishlarni nazorat qilish uchun, ko‘pincha, mutaxassis va rahbarlar xizmat safariga borishiga to‘g‘ri keladi. U xizmat safari sifatida rasmiylashtiriladi. Xizmat safari uchun xaq to‘lash «Xizmat safariga xaq to‘lash bo‘yicha “Yo‘riqnomalar” ga asosan bajariladi. Yo‘riqnomaning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- xizmat safari ishlab chikarish tashkiloti rahbari tomonidan ma’lum vaqtga doimiy ish joyidan tashqarida vazifalarini bajarish uchun beriladi;
- xizmat safari buyruq bilan rasmiylashtiriladi, safar guvoxnomasi, yo‘l haqi, kundalik sarflar hamda turar joyni ijaraga olish uchun avans beriladi;
- xizmat safariga jo‘natilgan xodimning ish joyi va o‘rtacha oylik maoshi saqlanib qolinadi;
- guvohnoma bilan safar to‘g‘risidagi yozma hisobot uch kun ichida topshirilishi shart.

## **§5. Viloyat va tuman Yer tuzish xizmati xodimlari mehnatiga haq to‘lash**

Viloyat va tuman Yer tuzish xizmati hodimlari mehnatiga haq to‘lash ajratiladigan mablag‘lar doirasida davlat byudjeti mablag‘lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Viloyat va tuman Yer tuzish xodimlari mehnatiga haq to‘lash shtat jadvalida keltirilgan lavozimlar bo‘yicha ularga belgilangan mehnatga xaq to‘lash razryadlari va tarif koeffitsentlar asosida oylik maosh belgilanadi. Bundan tashqari, boshqarma hodimlari va tuman xizmati xodimlariga rayon koeffitsentlari va oylik maoshlariga 20 foiz qo‘srimcha ustama haq Respublika hukumati tomonidan belgilanadi. Yer tuzish hizmati hodimlariga yuklatilgan topshiriqlarni bajarishda yashash joylaridan tashqarida xizmat safariga borishga to‘g‘ri keladi. U hizmat safari sifatida rasmiylashtiriladi.

## **§6. Mexnatga xaq to‘lash va rag‘batlantirishning takomillashtirish**

Hozirda ish hajmining tarif-tizimi tarif setkasi va tarif kvasifikatsiya ma'lumotnomasidan iborat.

Birinchi razryad tarif setkasi eng kam ish haqi asosida belgilanadi. Yagona tarif setkasi kvalifikatsiya va quyi kvalifikatsiya darajasidagi ishchidan tortib respublika darajasidagi qonunchilik va ijroiya hokimiyati rahbarlarigacha ish haqi shkalasida iborat. Bunda tarif stavkalari differensiyasi faqat xodimlarning bajaradigan ishi murakkabligi va kvalifikatsiyasi belgilariga ko'ra amalga oshiriladi. Mehnat shart-sharoiti, og'irligi, ko'p kuch talab qilishi, yakka holdagi va jamoa mehnatining miqdoriy hamda sifat natijalari kabi omillarni hisobga olish ish haqqini tashkil etishning boshqa elementlari orqali amalga oshiriladi.

Ish haqi va mehnatni rag'batlantirish tamoyillarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

- 1) universallik (ish haqi tizimi turli tashkiliy tuzilmalarda bir xilda yaxshi ishlashi lozim);
- 2) oddiylik va qulaylik;
- 3) avtomatik tarzda, tashqi aralashuvlari yuzaga keladigan, belgilangan ko'rsatkichlarni bajarganlik uchun jamoaviy javobgarlik;
- 4) jamoa ish haqini taqsimlashdaadolatlilik. (jamoa har bir a'zosining ish haqi miqdori faqat shaxsiy ulushga bog'liq va har bir chegara bilan cheklanmaydi)
- 5) mehnat jamoasining nafaqat ish usuli va metodiga, shuningdek, uning yakuni ish natijalariga bog'liq holda ish xaqi miqdorini belgilashdagi mustaqillik.

Mehnatning samaradorligi mutaxassis ishlayotgan ish o'rni va shart-sharoitiga bevosita bog'liq. Mutaxassis ish o'rnni oqilona tashkil etish ish faoliyatida imkon qadar qulaylik va maqbul shart-sharoit yaratishni ta'minlaydi.

Mutaxassis ish o'rnni tashkil etishda quyidagi talablarni inobatga olish kerak bo'ladi, ya'ni moddiy va ma'naviy manfatdorlik; jihozlar qulayligi; ogrtexnika vositalarini mavjudligi; ish va dam olishning oqilona rejimi va qulay sanitariya-gigiena va estetik ish sharoitini yaratilganligi.

## **G l o s s a r i y**

**Yer tuzish** – bu Respublika xalq xo‘jaligida Yerdan oqilona foydalanishda va uni muxofoza qilishda O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksini va boshqa Yer to‘g‘risidagi qonunchilik xujjatlarni amalga oshirilishini ta‘minlovchi asosiy mexanizmning bir qismi xisoblanadi.

**Loyixaning chizma qismi** - bu loyixani mazmuni ko‘rsatilgan bitta yoki bir nechta tarxlaridan va chizmalaridan iboratdir.

**Loyixaning yozma qismi** – bu Yerdan foydalanuvchilarni tashkil qilish bo‘yicha davlat organlarining tegishli qarorlari, Yerga egalik qiluvchi, Yerdan foydalanuvchilarni va tashkilotlarni vakolatlari, xuquqlari to‘g‘risidagi xujjatlar loyixani tegishli tomonlar bilan kelishilganligi xaqida boshqalar, shuning dek tushuntirish xati va xo‘jaliklar a’ro Yer tuzish loyixasini asoslash bo‘yicha sonlik ma’lumotlardan iboratdir.

